




T.H.ASADOV

SHARQ DONISHMANDLARI TA'LIM-TARBIYA HAQIDA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

T.H.ASADOV

**SHARQ DONISHMANDLARI TA'LIM-
TARBIYA HAQIDA**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2020**

UO'K 37(5-11)

74(55)

A 82

Asadov T.H.

Sharq donishmandlari ta'lim-tarbiya haqida [Matn] : uslubiy
qo'llanma / T.H. Asadov. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy"
Durdona nashriyoti, 2020. - 60 b.

KBK 74(55)

Xalqimizning ma'naviy olamida munosib o'rin tutgan ahli donishlar, ma'naviyat yulduzlari, jumladan – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mahmud Koshg'ariy, Abu Homid G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Unsurmaoliy Kaykovus, Abulqosim Firdavsiy, Mahmud az-Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiya borasidagi fikr-mulohazlari o'z davrida ham, bugungi kunda ham o'quvchi-yoshlar kamoloti uchun benazir ahamiyatga ega. Mazkur kitobda yuqorida nomi zikr etilgan allomalarning ta'lim-tarbiyaga doir fikrlari jamlanib, munosabat bildirilgan.

Usuliy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim o'qituvchi va o'quvchilar, talaba yoshlar, tadqiqotchilar – keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) **D.A.Tosheva**

Buxoro shahar 35-maktab ona tili va adabiyot fani

o'qituvchisi **D.R. Jorayeva**

Mazkur qo'llanma BuxDU filologiya fakulteti Ilmiy kengashining 7-may 2020-yildagi 9-sonli majlis bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6404-6-7

SO'ZBOSHI

Insoniyat uchun ta'lim-tarbiya har bir zamon va har bir makonda o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Turli millat va xalq singari ota-bobolarimiz ham yosh avlodni hayotga tayyorlashda o'z tajriba va bilimlariga, o'zlariga mos urf-odat, an'alariga tayanishgan. Xalqimiz muayyan bir ta'lim-tarbiya mezonlari, o'quv adabiyotlari yaratilib ulgurilmagan bir davrda yoshlarni insoniy fazilatlarga – mehnatsevarlik, jangovorlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, mehribonlik, do'stlik, mehr-shafqat, oliyjanoblik, aqidrok, sadoqat va vafoga o'rgatishga bosh-qosh bo'lishgan. Bu kabi fazilatlar insoniylikning bosh belgisi bo'lib, Sharq xalqlarida juda qadimdan shakllangan va rivoj topgan.

Xalqimiz teran ma'noli hikmatli so'zlar, ibratli hikoyat va rivoyatlarga moyilligi bilan ajralib turadi. Ular har bir hikmatli so'zni bir tilloga teng ko'rishgan. Rivoyat qilishlaricha, Olloh taolo Luqmoni hakimdan: "Payg'ambarlik beraymi yoki hikmatmi?", – deb so'raganida Luqmoni hakim hikmatga esh kishining o'zi to'g'ri, so'zi ma'noli, ishi puxta bo'ladi deb hikmatni tanlagan ekan. Shundan keyin Xudovandi Karim unga shunchalik ko'p hikmat ato etibdiki, barcha payg'ambarlar ham uning pand-nasihatlariga muhtoj bo'libdi¹.

Pand-nasihat, ta'lim-tarbiya ota-bobolarimiz asarlarining qat-qatiga singib, ularning asl mag'zini tashkil qilishi ayni haqiqat. Bu qatordan "Kalila va Dimna", "To'tinoma", "Ming bir kecha", "Chor darvesh", "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Al-adab al-mufrad", "Mukoshafatul qulub" ("Qalblar kashfiyoti") "Guliston", "Boston", "Bahoriston", "Zarbulmasal", "Ilohiynoma", "Masnaviyi ma'naviy", "Mahbub ul-qulub" va boshqa bir qancha asarlar o'rin oladi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, Sharq xalqlari hikmat, ibrat, pand-nasihat bilan butun dunyo ilm-adab ahlini hayratga solib kelgan.

Donishmand xalqimiz bola tarbiyasida kezi kelganda nasihat qilish, tushuntirish, rag'batlantirish, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, maqtash, taqiqlash, qo'rqitish, po'pisa qilish kabi usullardan o'rinli foydalanishgan. Bunda yoshi ulug'lar o'quvchi-yoshlarga ibrat bo'lishi alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

¹ "Sharq hikoyat va rivoyatlari". Tuzuvchi va so'z boshi muallifi E.Ochilov. –T.: "Sharq", 2018. 3-bet.

O'zni kelganda kattalar jam bo'lishib, bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o'tkazishgan, bolaning noto'g'ri xatti-harakati ko'rsatilib, ota-onasiga tegishli maslahatlar berishib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishgan. Tarbiyada rag'batlantirish, taqdirlash, tanbeh berish, man etish usullaridan keng foydalanilgan¹.

Rag'batlantirish so'zi lug'atlarda "insonning his-tuyg'ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta'sir" tarzida izohlanadi. Psixologiya atamasi sifatida bolaning xulq-atvori, qilgan yaxshi amalini ma'qullash, bolani yaxshi ishi uchun ruhlantirish va h.k.lar rag'bat sanaladi.

Taqdirlash ham ta'lim-tarbiyada o'ta muhim. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da taqdirlamoq so'zi "munosib baho, mukofot va shu kabilar bilan nishonlamoq, qadriga yetmoq, qadrini qayd etmoq" (ЎТЎЛ 4-jild, 36-b.) deb izohlanadi. Biroq pedagogika atamasi sifatida mazkur so'zning ma'no imkoniyati keng. Aslida o'quvchi-yoshlarning ijobiy xatti-harakatini ikki asosga ko'ra taqdirlash mumkin. Birinchidan, ularga nisbatan og'zaki tarzda, ya'ni "yasha", "barakalla", "baraka top", "kam bo'lma", "otangga rahmat", "bor bo'l", "rahmat, bolam" kabi so'z va jummalarni ishlatishi mumkin. Bu kabi "sehrli so'zlar" o'quvchini, albatta, ruhlantiradi, katta-katta muammolarni hal qilishga chorlaydi. So'zlovchi va so'zga bo'lgan mehrini oshiradi. Ushbu so'zlarni nutqida qo'llashni odat qilgan o'qituvchi-murabbiylar yosh avlodni boshqarishda qiynalmaydi, o'z ornida, hurmat va qadr topadi.

Taqdirlash samimiy munosabatlarda ham, ya'ni bolaning boshini silab qo'yish, muloyim so'zlash, hatto mehr bilan boqishda ham bo'y ko'rsatishi mumkin. Ikkinchidan, turli maqtov yorliqlar, o'quv qurollari (sovg'alar) taqdim etishda ham taqdirlash amalga oshiriladi.

Tanbeh va man etish o'quvchi-yoshlarning salbiy xatti-harakatiga ko'ra qo'llangan. O'zbek xalqi pedagogikasida man etish usuli uyatli so'zlar aytgan, so'kingan, mayxorlik, giyohvandlik yo'liga kirgan, qimor o'ynagan, xullas, yuqori cho'qqida turuvchi illatlarni kasb etgan o'smirlarga nisbatan qo'llangan. Kattalar bolaning bu

¹ A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T.: "O'qituvchi", 1997. 11-bet.

illatlardan xoli bo'lishi uchun birgalikda sa'y-harakat qilishgan va bunga erishgan¹.

Xullas, qadimdan ta-lim-tarbiya asosida xalq donoligi, donishmand ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li – hayot falsafasi eng asosiy “o'quv darsligi” bo'lib xizmat qilgan.

¹ Ko'rsatilgan asar: 12-bet.

“AVESTO”DA ENG QADIMGI MA’RIFIY QARASHLAR

“Avesto” (ma’nosi – “o’rnatilgan, muqarrar qilingan asosiy yo’riqnoma”) zardushtiylik¹ dinining muqaddas kitobi bo’lib, ushbu kitobdan O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlarida: urf-odat, e’tiqod, ibodat paytida qiroat qilinadigan, diniy marosimlarda ijro etiladigan qo’shiqlar, ohanglar haqida ma’lumot olamiz². “Avesto”dagi ma’lumotlarning qadimgi qismlari er.av. 3000-2000 yillarga taalluqli. Undan “Avesto” yozilgan davr, ijtimoiy tuzum, xalqimiz tarixi haqida ma’lumot mujassam. “Avesto”dan turli hayotiy masalalar, jumladan, ilm-fan, ta’lim-tarbiya haqida ham ma’lumot olishimiz mumkin. Mazkur yodgorlikda Xuroson, Movarounnahr, Eron xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, dehqonchilik va chorvadorlik haqida fikrlar ham mavjud. Unda Zardusht o’z nasihatlarini, she’rlarida adolatni targ’ib etadi, yaxshi xulq va fazilatlarini ulug’laydi. Uning ta’limoti uch ifodada – Humatta (yaxshilik ramzi), Nuhta (to’g’ri so’z), Xvarshita (yaxshi xulqlar)da mujassamlashgan³.

Zardusht dunyo tarixida dinni mahzab, sehr-u jodudan, zohiriy udum va marosimlarni ko’r-ko’rona bajarishdan xalos qilgan. U axloq me’yorlarini hayot mezonini deb biladi va bashariyatga *yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal* olamini ham, odamni ham bezaydi, deb tushuntiradi⁴.

“Avesto”da inson *fikri, so’zi va ishi* bilan go’zaldir, degan g’oya asosiy shior bo’lib gavdalanadi. Zardusht nazarida “so’z yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir”.

“Avesto” ta’lim-tarbiya manbasi hamdir. Zardushtiylik ta’limoti bo’yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchanlik va bunyodkorligi barcha nopok kuchlarni quvadi, faqat mehnat, oliyjanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko’paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat,

¹ Zardusht Sharq faylasuflaridan biri bo’lib, er.av. VII asrda Xorazmda yashab o’tgan. O’z davri chorvador xalqlarining dini, urf-odatlari, an’analari o’rgangan, din peshvolari suhbatida ishtirok etgan. Ko’p xudolilikdan yakka xudolilik (Axuramazda) ni targ’ib qilgan.

² A.Zunnunov. O’zbek pedagogikasi tarixi. –T.: “O’qituvchi”, 1997. 15-bet.

³ Ko’rsatilgan asar: 16-bet.

⁴ A.Rafiyev, N.G’ulomova. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2011. 146-bet.

tinchlik, davlatga erishish mumkin. Unda ko'plab afsonafiy qahramonlarning – hayotni saqlab qolishga intiluvchi kuchlar, ya'ni mardlik, jasorat, matonat, insonparvarlik kuchlarining razolat, qabohat, zulmat, halokat kuchlari bilan kurashi tasvirlanadi. "Avesto"da shahar-u qishloqlarni obod qilishga, bog'-u rog'larni, yaylovlarni ko'paytirishga undash va oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi borasida qimmatli fikrlar bor. Bu kabi fikrlar, asosan, Zardushtning Axuramazda bilan savol-javobida yaqqol ko'rinadi. Masalan, Zardusht so'raydi: – Ey jismoniy olam parvardigori Axuramazda, rosti bilan menga ayt-chi, yer yuzining ko'rki va shodligi bo'lmish makon qayerda? Axuramazda aytdi: – U shunday bir yurtki, u yerda bandalarim o'zlariga maskan, ibodat uchun otashkadalar, hayvonlarga qo'ralar qurib, oilali, bola-chaqali, kuchli, qurolli bo'ladilar. Ana shu taqdirda ularning yurtida hayvonlar ko'payadi. Xayr-u baraka oshadi, yaylovlar ko'payadi, oila bunyod bo'ladi, turli-tuman noz-u ne'matlar serob bo'ladi. Korinadiki, "Avesto" insonlarni, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgu ishlarga chorlovchi, yaxshiliklarni qilishga undaydigan mohiyatan pand-nasihat ruhida bitilgan asar sanaladi.

Asardan parcha: Biz Mitraga topinamiz,
U so'zida sobitlarni,
Lavzi halol kimsalarni
Falokatdan saqlagaydir,
Halokatdan saqlagaydir...
Shafqatsizdir kimda-kim,
Yolg'ochidir, subutsizdir,
Ularni antarib yuborar Mitra.

Demak, Mitra (Quyosh xudosining nomi, kuch-qudrat, baxt-saodat ramzi) so'ziga sobit, lavzli halol kimsalarni xush ko'radi, yolg'ochi, subutsizlarni yoqtirmaydi. Asarning yana bir o'rnida quyidagilarni o'qiymiz:

So'zga xoin odamlar
Qo'lin ortidan tutar.
Ko'zlarin ko'rmas qilar,
Quloqlarin qilar kar...
Jazosin shunday berar
Yaylovi cheksiz Mitra.

“Avesto”da yer, suv, kiyim-kechak, uy, oziq-ovqat, jismni toza tutishga alohida e’tibor berilgan. Yerni iflos qilgan, uni to’g’ri saqlash qonun-qoidalarini buzgan kishi qirq qamchi urish bilan jazolangan.

Unda doimiy badantarbiya bilan shugu’llanish, kunda bir necha bor yuz-qo’lni yuvish, soch va tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. “Avesto”da qarindoshlarning o’zaro oila qurishi man etilgan. Ko’p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash, oilada egizak dunyoga kelsa, shu oilaga sog’in sigir hadya etilishi lozimligi qayd etilgan.

Asarda yozilishicha, “O’t-o’lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bo’lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson-sargardon yuradigan yer eng yomon yerdir”¹.

“Avesto”da issiqlik, sovuq havo, ochlik va purxo’rlik, ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, Axruman yuborgan qurt, pashsha va boshqa hasharotlar, yomon havo kasalliklarning asosiy manbasi ekanligi, unda 9999 kasallikni Axruman paydo qilganligi aytiladi².

“Avesto”da tibbiy fikrlar quyidagicha tasnif etiladi:

1. Tashreh (anatomya) va mijoz (fiziologiya).
2. Bemorliklarning oldini olish vositasi.
3. Kasalliklar haqidagi ma’lumotlar.
4. Tabiblarning axloqi va tabobatga oid ba’zi qonun-qoidalar³.

“Avesto”da tabiblarning maxsus qasamnomasi keltirilgan; tabobat ramzi – ilon zahar sochayotgan idish – jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Unda qadimgi kishilarning o’rtacha umri 800-900 yil bo’lishi, ayrim odamlar yashash sharoiti, muhitiga qarab 1400 yilgacha umr ko’rishi mumkinligi aytiladi.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan mazkur asar eng qadimgi, noyob bilimlar xazinasi sanaladi. “Avesto” ijtimoiy hayot, turmushning turli masalalari, shuningdek, ta’lim va tarbiyaga alohida ahamiyat qaratilgan asardir. Zardusht ta’limoti – “Avesto”da ilgari surilgan *ezgu fikr, ezgu kalom, va ezgu amal* qadimdan hozirga qadar insoniyatni ezgulikka chorlab, ularni ruhan poklab, ma’nan kamol toptirishga xizmat qilib kelyapti.

¹ A.Zunnunov. O’zbek pedagogikasi tarixi. –T.:”O’qituvchi”, 1997. 17-bet.

² H.Homidov. Bilimlar xazinasi. “Shohnoma” ning shuhrati“ kitobidan. – T.: “O’qituvchi”, 1991, 93-bet.

³ Ko’rsatilgan asar: 92-bet.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqimizning qadimiy tarixini yoritgan qanday asarlarni bilasiz?
2. “Avesto” yozilgan davr haqida, asarning tizilishi bo’yicha gapiring.
3. “Avesto” mazmuniga ko’ra qanday asarlar sirasiga mansub?
4. “Avesto”dagi qaysi fikrlar sizga ma’qul bo’ldi?

MAHMUD KOSHG’ARIY HIKMATLARIDAN

Ilm ahliga yaxshi ma’lumki, XI asrda qoraxoniylar davlatida ma’naviy-ma’rifiy hayot anchagina ildamlagan edi. Bu vaqtda kasb-hunar, ilm-fan bir qadar rivojlangan, ko’pgina ilmiy, tarixiy asarlar dunyoga kelgan edi. Shulardan biri – Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asaridir. Bu asar uch jilddan iborat bo’lib, adibning uzoq yillar davomidagi izlanishlari asosida 1076-77-yillarda yozib tugatilgan.

Asar lug’at deb atalsa-da, lekin bu asarda o’sha davrdagi va ungacha bo’lgan ilmiy-adabiy asarlar, xalq ijodi, maqollar, hikmatli so’zlardan parchalar keltirilgan. Asar XI asr turkiy xalqlar tili, adabiyoti, madaniyati, tarixi, ilm-fan, urf-odatlar, hayot tarzi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. O’tmishdan shunday ulug’ kitobning yetib kelganligi butun turkiy xalqlarning baxti sanaladi. Shu sababdan uning qadr-qimmatini hech qanday dur-u javharlar bilan o’lchab bo’lmaydi, deyish mumkin.

Asarda ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar ham bor. Ular yoshlarga nasihat-o’git tarzida berilgan. Shunday parchalarning biri: “Ilm-hikmat o’rgan, o’rganishda havoyilik qilma, hech narsa o’rganmasdan o’zini bilimdon ko’rsatib maqtangan kishi – imtihon vaqtida uyaladi, achinadi”¹.

Adib yoshlarni bilim, hunar egallash uchun sa’y-harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Asarning yana bir o’rnida kelajak avlodga qarata: “Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so’zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o’rganib, amalga oshir... O’g’lim, o’git-kengashimni

¹ Mahmud Koshg’ariy. Devonu lug’otit turk. – T., 1960, 253-bet.

qulog'ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo'lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli odam nasihatni qabul qiladi”.

Hikmatlardan ko'rinadiki, M.Koshg'ariy yosh avlodning asosiy burchi – ilm olish va hunar o'rganish deb biladi. Donishmand bobomiz yoshlarga murojaat qilib: “O'g'lim, men sening uchun odob ham nasihat qoldiraman, olim bir odam topsang, shunga tomon qara, har kuni yoniga bor, uning bilimlarini o'rgan, kattalikni qo'ygin, ...odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasiga odob, ilm tarqat”, – deya ta'kid etadi.

Asarda keltirilgan nasihat va o'gitlarda ilm olishga, olimlarni hurmatlashga, ulardan olingan bilimlarni amalda qo'llashga da'vat etibgina qolmay, balki yosh avlodda eng yaxshi insoniy fazilarlar hosil qilishga ham da'vatlar bor¹.

“Devonu lug'otit turk” asari tarkibida insoniy fazilatlar, ya'ni ota-onani hurmatlash, do'stlik va o'rtoqlik, birodarlar qadriga yetish, odamlarga yaxshilik qilish, yomon so'zdan saqlanish, el xizmatida bo'lish, kamtar, nazokatli, odobli bo'lish haqidagi nasihatlar mavjud.

Asarda qo'llangan masallar (ibratli so'zlar)dan²:

- Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham, o'z sopini yo'nmaydi (Necha yitig bichak ersa, o'z sapin yanumas)
- Kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymas (Kuzaku uzun bo'laa, elik kuymas)
- Bir qarg'a bilan qish kelmas (Bir qarg'a birla qish kelmas)
- Bo'ri qo'shnisini yemaydi (Bo'ri qo'shnisin yemas)
- Ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq (Ko'zdan yirasa, ko'ngildan yama yirar)
- Ovchi ov hiylalarini qanchalik bilsa, ayiq ham qochish yo'llarini shuncha biladi (Avchi necha al bilsa, adig' ancha yo'l bilir)
- Chanqagan kishiga har bir sarob suv bo'lib ko'rinadi (Usuqmisha saqig' qamug' suv ko'rinur)
- Yuvosh odam bilan urush, yuzsiz bilan urushma (Tuzun birla urush, utun birla ustarma)

¹ I.Husanxo'jayev. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: “O'rta va oliy maktab”, 1963, 28-29-bet.

² Misollar olingan manba: Q.Sodiqov. Tilshunoslikning ulug' obidasi. Vatan gazetasi, 1994, 22-son.

- Yoqasidagini yalash bilan ovora bo'lgan qo'lidagidan ayrilar (Yaqadagi yalg'ag'ali elikdagi ichg'inur)
- Dushmanni kichik hisoblasa, boshga chiqar (Yag'ini ashaqlasa, boshqa chiqar)
- Osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg'iz tuzning o'zi yeyilmaydi (Ash tatig'i tuz, yug'rin yemas)
- Bo'ladigan buzoq ho'kizlar orasida ma'lum bo'ladi (Bo'ldachi buzag'u o'kuz ara belgulug)
- Uyda o'sgan buzoq hech vaqt ho'kiz bo'lmaydi (Evdagi buzag'u o'kuz bo'lmas)
- Tuya mingan odam qo'ylar orasida yashirinmaydi (Tevay munub qo'y ara yashmas)
- Tavg'ach xonining ipaklari mo'l, lekin o'lchamay kesilmaydi (Tavg'ch xanning to'rqusi telim, tenglamadib bichmas)
- Ishtoni butun qanday xohlasa, shunday o'tiradi (Butun umlug qancha qulsa o'ltirur)
- Mol terisini shilib olgach, quyrug'ida pichoqni sindirma (To'qum yuzub qudrugta bichak sima)
- Qush tuzoqqa xo'rak uchun ilinadi (Qush tuzag'qa mang uchun ilinur)
- Kampirning o'zi o'yin bilmaydi, yer tor deydi (Qurtg'a buzing bilmas, yerim tar ter)
- Qirq yilgacha boy bilan kambag'al tenglashadi (Qirq yilqa tegin bay chig'ay tuzlanur)

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. M.Koshg'ariyning hayot yo'li va ijodi haqida gapiring.
2. "Devonu lug'otit turk"ning qomusiy asar deyilishini izohlang.
3. "Devonu lug'otit turk" asaridagi hikmatlar mazmunini izohlang.
4. Asardagi qaysi hikmatlar bugungi kunda ham keng ishlatiladi?

IMOM BUXORIY MEROSI – MA’RIFAT CHASHMASI

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug’ira ibn Bardibza al-Buxoriy (810-870) islom dunyosida “muhaddislar imomi”, “muhaddislar sultoni” kabi nomlar bilan mashhur bo’lgan¹.

Imom al-Buxoriy yoshlik chog’ida otasidan ayriladi, onasi qo’lida tarbiya topadi. O’n yoshidanoq arab tili va hadis kitoblarini mutolaa qilish va ularni yod olishga qunt bilan kirishadi. Buxorolik muhaddislar Muhammad ibn Salom al-Paykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy al-Jurfiylar huzuriga borib, ulardan ko’plab hadislarni yod oladi. 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga otlanadi. Safar davomida qaysi shahardan o’tsa, o’sha yerdagi hadis olimlaridan ozmi-ko’pmi dars oladi.

Insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo’shgan Imom al-Buxoriy axloq va odobga oid hadislar mujassamlangan hamda ahamiyatiga ko’ra Qur’oni Karimdan keyingi manba deb e’tirof etilgan “Al-jome’ as sahih” (“Ishonchli to’plam”) asari ustida 16 yil ishlaydi, unga kiritilgan 7397 hadisni 600 ming hadisdan saralab oladi.

Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asarida ham axloqiy qadriyatlarni bayon etadi. Yoshlarni ota-onaga hurmatda bo’lishga, onani hurmatlashga, mehr-oqibatli, pok va iymonli bo’lishga da’vat etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanligini ta’kidlaydi. “Al-adab al-mufrad” asarining 1–24- boblari farzandlarning ota-ona oldidagi burchi, ota-onani izzat qilishga, qadrini baland tutishga bag’ishlangan². Asarda ota-onaning duosi haqida ko’plab hadislar keltirilgan, ulardan biri: Abu Hurayya aytadilar: Rasululloh: – Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz, Alloh Taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi, ota-onaning duosi.

Umuman, buyuk bobokalonimiz Imom Ismoil al-Buxoriy butun umrini insoniyatni ezgu fazilatlarga, oliyjanob xislatlarni yoshlarga tarkib toptirishga bag’ishladi. Ularni vijdon tozaligi, iymon-e’tiqod, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaga undadi. U kishining asarlari yoshlarni illatdan poklash va fazilatga boshlashda katta ahamiyatga ega.

¹ Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. –T.:”Sharq”, 2015. 21-bet.

² Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T., 1990.

Imom al-Buxoriy hadislaridan namunalari¹:

Ilm va bilimdonlik haqidagi hadislardan

- Donolikning boshi Olohdan qo'rqishdir.
- Ilm o'rganib, boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyo yig'ib, sarf qilmay ko'mib qo'yish bilan barobar.
- Eng yaxshilar Qur'onni o'rganib, Qur'onni o'rgatgan kishilardir.
- Katta yoshlilar bilan o'tiringlar, olimlardan so'ranglar, donolar bilan aralashinglar.
- Ilmning ofati – esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'batini bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zo'ye ketkazmoqlikdir.
- Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar.
- Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo'lib, u foydalidir. Ikkinchisi, tildagi ilm bo'lib, u Tangri huzurida banda zarariga dalil bo'ladi.
- Bir soatlik ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ro'zadan afzaldir.
- Sadaqaning afzali: mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'min birodarlarga ham o'rgatishidir.

Ota-ona va farzand burchi haqidagi hadislardan

- Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilanglar.
 - Bola-chaqa ko'p bo'lib, moddiy mablag'ning oz bo'lishi katta balodir.
 - Ota-onasi qarg'aganni Tangri qarg'aydi.
 - Agar ota-ona birdaniga chaqirib qolishsa, avval onaga javob qil.
 - Ota-onangizga qanday yaxshi muomalada bo'lsangiz, farzandingiz ham sizga shunday muomalada bo'ladi.
 - Otangiz vafotidan keyin uning do'stlari bilan aloqani davom ettiring. Ular bilan aloqani uzsangiz, Tangri sizning nuringizni o'chiradi.
 - Uch xil sifat borki, kimda-kim ularga ega bo'lsa, Tangri qiyomat kuni uni himoya qilib, o'z jannatiga kirgizur:
1. Zaiplar bilan xushmuomala bo'lish.

¹ Hadislar olingan manba: Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislar. –T.:”Kamalak”, 1991.

2. Ota-onasiga shafqatli bo'lish.
 3. Qo'l ostidagilariga himmatli bo'lish.
- Uch xil duo bordirki, ular, shaksiz mustajob bo'lgay:
1. Ota-onaning farzand haqiga qarg'ab turib qilgan duosi.
 2. Musofirning duosi.
 3. Mazlum kishining duosi.

Turli fazilat va illatlar haqidagi hadislardan

- Uzr aytiladigan ishni qilma.
- Quloqqa ozor beradigan gap so'zlama.
- Ibodatning eng osoni va badanga yengili – jim turmoq va xushxulq bo'lmoq.
- Omonatdorlik rizq keltiradi, xiyonat faqirlik keltiradi.
- Taomning barakasi taom yeyishdan avval va undan keyin qo'lni yuvishdadir.
- Rizqning o'ntadan to'qqiztasi savdoda, bittasi chorvadadir.
- Erkak kishining jamoli tilidir.
- Hayo faqat yaxshilik keltiradi.
- Tilamchini quruq qaytarmanglar, agarchi chivinni boshidek narsa berib bo'lsa ham.
- Pora bergan ham, pora olgan ham do'zaxga tushadi.
- Qabrlarni ziyorat qilinglar, zero u sizlarga oxiratni eslatadi.
- Salom bu Ollohnin ismlaridandir. Olloh uni yerga nozil qildi, uni oralaringizga keng tarqatinglar.
- Tongda uxlash rizqni kesadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Imom Buxoriyning to'liq ismini ayting.
2. Imom Buxoriy asosan qaysi usul va janrlarda ijod etgan?
3. Imom Buxoriy hadislaridan namunalar ayting.
4. *“Ota-onangizga qanday yaxshi muomalada bo'lsangiz, farzandingiz ham sizga shunday muomalada bo'ladi”*, hadisi mazmunini izohlang.

G'AZZOLIYNING “MUKOSHAFATUL QULUB” ASARI – RUHUYAT KAMOLI

Hayot haqiqati va iymon ne'matlarini teranroq anglab, his etgan Abu Homid G'azzoliy (1058-1111) butun insoniyatga Islom ta'limini berib, shubha bulutlarini tarqatib yuborgan va qalbi iymonga limmolim mutafakkir, ma'rifatparvar bir siymo edi. U uqtirgan ilmlar soyasida butun Sharq xalqlari tartibli yashashni o'rgandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi¹.

Abu Homid G'azzoliyga ko'pdan ko'p ta'rifi-tavsiflar berilgan. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni muqaddimasida u kishini “ko'k gumbazi uzra bezakli qandil”, deya ta'riflagan. Abu Ibrohim Bag'dodiy “Bag'dod tarixi” asarida: “U shunday bir kimsa ediki, bu dunyodagi ko'zlar uningday notiqni, uningday zukko va oqilni ko'rmagan edi”, – deb keltiradi.

G'azzoliy otasidan erta yetim qolgan. Uning otasi ip yigiruvchilik kasbi bilan shug'ullangan. O'zi ilm ololmagani tufayli yoshligidah farzandli bo'lsam, albatta, ularni o'qitaman, deya niyat qiladi. Ikki o'gil farzandli bo'lganida behad quvonadi. Ularni olim qilish orzusida bo'ladi. Biroq taqdir buni unga ravo ko'rmaydi. Kasallanib, o'lim to'shagida yotganida do'stlari uni ko'rgani kelishadi. Shunda u yum-yum yig'laydi. Yaqin qarindoshlaridan biri: “Menga qara do'stim, bu dunyoda faqat sen o'layotganing yo'q-ku. Erta-indin biz ham sening ortingdan boramiz. Namuncha ko'z yoshi to'kmasang?” – deb koyiydi uni. Shunda u yig'idan to'xtab: “Men buni deb yig'layotganim yo'q, o'g'illarimni o'qitib olim qilmoqchi edim, shu niyatimga yeta olmay armonda ketyapman”, – deydi. Yaqin do'sti maqsadini tushunib: “Armoning faqat shu ekan, ularni o'qitish menga sendan omonat bo'lsin, ularni o'zim o'qitaman”, deb va'da beradi. U olamdan o'tgandan keyin sadoqatli do'sti bergan va'dasining ustidan chiqdi: yetim qolgan aka-uka – Muhammad va Ahmadning ilm olishlariga imkoniyat yaratdi. Keyinchalik ular islom olamining taniqli olimlariga aylanishdi.

Abu Homid G'azzoliy o'nlab asarlar yozadi. Uning mashhur asarlaridan biri “Mukoshafatul qulub” (“Qalblar kashfiyoti”) bo'lib,

¹ Fikr Miraziz A'zamga tegishli. Qarang: Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. –T., 2018.

unda Ollohdan qo'rqish, sabr va xastalik, nafs tarbiyasi, ilm egallash, asil olimlik qanday bo'lishi kerakligi, yaxshilik va yomonlik, to'qlik va ochko'zlik, molk-mulkning kishilarga bevafoqligi, g'iybat va kibr-havoning insoniyat uchun zarari, ota-onaga yaxshilik qilish hikmati, halollik, to'g'rilik, bir so'z bilan aytganda, fazilat va illatlar, ularning yoshlar ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni haqida fikr-mulohazalar o'rin olgan¹.

Bu asar pand-nasihat ruhida yozilgan, u yoshlar tarbiyasi uchun o'ta muhim. Jumladan, asarning "Allohdan qo'rqish" nomli 1-bo'limidan quyidagilarni o'qiymiz: "Butun vujudi va barcha a'zolari bilan Allohdan qo'rqqan kishilar mo'minlardir. Bu borada Imom Abu Lays Samarqandiy bunday deydi: "Allohdan qo'rqishning alomati yetti narsada namoyon bo'ladi:

1. Tilda: Allohdan qo'rqqan odam tilini yolg'on, g'iybat, boshqalarga bo'hton qilish va bekorchi so'zlarni aytishdan tiyadi. Uni Allohni zikr etuvchi, Qur'on o'quvchi va ilmiy muzokaralar bilan mashg'ul a'zo holida shay tutadi.

2. Qalbda: Allohdan qo'rqqan kishi qalbida musulmon qardoshlariga dushmanlik his etmaydi: yolg'on, bo'hton, hasad qilish kabi g'ayriinsoniy tuyg'ularni qalbidan o'chiradi. Chunki hasad kishining go'zal amallarini mahv etadi.

...Qalbdagi xastaliklar, ya'ni yomon tuyg'ular, yomon fe'llar faqat ilm va amal tufayli muolaja topishi mumkin.

3. Ko'zda: Allohdan qo'rqqan odam yeyish, ichish, kiyinish va boshqa ishlarda ham ko'zini haromdan saqlaydi. Dunyoga hirs va har narsaga ega bo'lish ishtiyoqi bilan emas, ibrat nazari ila qaraydi. Halol bo'lmagan narsalarga qarashdan tiyiladi. Shuning uchun ham Allohning Rasuli buyuradi: "Kim ko'zini harom narsalar bilan to'ldirsa, Alloh ham qiyomat kuni uning ko'zini olov bilan to'ldiradi".

4. Me'dada: Allohdan qo'rqqan odam me'dasiga harom luqma bermaydi. Chunki harom luqma yeyish eng katta gunohlardan biridir. Shu bois Allohning rasuli buyuradi: "Inson zoti me'dasiga bir luqma harom tushganda, bu luqma me'dasida qancha vaqt tursa, yer-u ko'kdagi farishtalar ham unga shuncha vaqt la'nat aytadilar".

¹ Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijodiy uyi", 2018.

5. Qo'lda: Allohdan qo'rqqan inson qo'lini haromga uzatmaydi, aksincha, Allohning rizosiga uyg'un narsalarga uzatadi...

6. Oyoqda: Allohdan qo'rqqan inson isyon yo'lida emas, Allohga itoat yolida odimlaydi. Ilm-ma'rifat va yaxshi axloq o'rganish maqsadida olimlar va solih kishilar majlisiga boradi.

7. Itoatda: Allohdan qo'rqqan odam yolg'iz Allohning rizosi uchun unga itoat etadi. Riyo, insonlarga o'zini yoki ishlarini ko'z-ko'z qilish va ikkiyuzlamachlikdan saqlanadi"¹.

Asarning "Ota-onaga yaxshilik" bo'limidan parcha:

Imom Muslim yozadi: "Payg'ambarimiz huzuriga bir odam kelib: "Yo Allohning rasuli, hijrat va jihod uchun sizdan ruxsat olgani keldim. Alloh yo'lida savob ishlar qilmoqchiman",- deydi. Bu gaplarni eshitgach, u zot so'radilar: "Ota-onang hayotmi?" "Ha, ikkisi ham tirik",-deydi. Rasulullo:"Allohdan ajr olmoqchimisani?" – deydilar. "Ha, – dedi u. Rasululloh: ""Ota-onang oldiga borib, ularning ko'nglini ol", – deydilar.

Bundan ko'rinadiki, ota-onaning ko'ngliga qarab ish tutgan, ularning borida ardoqlab-asragan, hurmatlarini joyiga qo'ygan kishining ikki dunyosi ham saodatli bo'ladi. Tarbiyaning bosh belgisi ham shu aslida.

Asarning "Sabr-qanoatning fazilati" bobida quyidagi fikrlarni o'qiymiz: "Odamzodning tabiatida falokatga sudrovchi hirs va mol ishtiyoqi bo'lgani uchun Alloh va Rasuli qanoatni va qanoatli bo'lganlarni madh etdilar. Rasululloh dedilar: "Islomga musharraf bo'lgan, uning axloq asoslariga erishgan, halol topganiga qanoat qilgan, qanoatli bo'lgan kimsalar naqadar baxtiyordir". Yana o'qiymiz: "Hazrat Umar deydilarki, Ochko'zlik – kambag'allik, qanoat – boylikdir. Kimniki ko'zi odamlarning mol-mulkiga tikilmasa, ularga muhtoj bo'lmagay". Shu o'rinda mavzuga doir quyidagi misralar keltiriladi.

Zavq-u safo o'tar-ketar,
Buyursa ham zavol yetar.
Qanoat qil – bo'larsan shod,
Nafsni tiysang – ruhing ozod,
Oltin, yoqut hamda inju –
Ne-ne o'lim sababi shu¹.

¹ Ko'rsatilgan asar: 9-10-bet.

Xullas, Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" ("Qalblar kashfiyoti") asari yoshlar kelajagi uchun ulug' bir maktab bo'lib, ta'lim-tarbiya manbasi sifatida benazir ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asari umumiy mazmuni haqida gapiring.
2. Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asari Imom Buxotiyning qaysi asariga mazmunan yaqin?
3. *"Allohdan qo'rqishning alomati yetti narsada namoyon bo'lishi"* ni izohlang.

ABU NASR FAROBIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Abu Nasr al-Farobiy (879-950) o'rta asr mashhur mutafakkiri sanaladi. Mutafakkir so'zi barcha olimlarga nisbatan ham qo'llanavermaydi. Mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi" tarzida izohlanadi. Yana shuni aytish mumkinki, mutafakkir so'zi barcha ilmlar, fanlar bo'yicha fikr yurita oladigan, fikrlash qobiliyati yuqori, qomusiy bilim egasiga nisbatan qo'llanadi.

Farobiy o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, bir so'z bilan aytganda, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozonib, "Aql haqidagi risola", "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak?", "Falsafa manbalari", "Baxt-saodatga erishuv haqida" kabi 160 dan ortiq asar yaratdi²

Farobiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari turli falsafiy masalalarni yoritish munosabati bilan bayon etilgan³. U insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetugi deb biladi. Shunga ko'ra, u asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallashini qayd etadi. Insonning kamolotida, uning odamiyligida

¹ Ko'rsatilgan asar: 158-bet.

² A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T.: "O'qituvchi", 1997. 43-bet.

³ M.Xayrullaev. Farobiy ruhiy proseslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. –T.: "O'qituvchi", 1967.

xayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar yuqori o'rin tutishini ta'kidlaydi. Farobiy aytishicha, bir kishining yolg'iz o'zi (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) kamolotga erisha olmaydi. Farobiy ta'lim-tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi. Uning fikricha, insonning xohish, ixtiyor, iroda, yaxshilik va yomonlik kabi xislatlarini, nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib, ishga kirishish kutilgan natija bermaydi.

Farobiy "Ideal shahar aholisining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolalarida insonning ikki tomoni, ya'ni uning aql-ongi va axloqiga alohida ahamiyat beradi. Ta'lim-tarbiya kishini ham aqlan, ham axloqan yetuk qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi jamiyat talablariga to'la javob bera oladigan komil inson tayyorlashdir. Buning uchun u yoshlarni ham jisman, ham ma'nan yetuk bo'lib yetishishi uchun tarbiya turlari sifatida jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiyaga to'xtaladi. U yozadi: Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning dunyoviy qarashlari, hayotga munosabati, hayot falsafasi asosida amalga oshiriladi¹.

Olim fikriga ko'ra, yoshlarga tarbiya berishning ikki usuli mavjud. Birinchisi – san'atni (fanlarni) o'z rag'batlari bilan o'rganadiganlarga nisbatan ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda yoshlarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul.

Farobiy "Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak" nomli asarida yozadi: "...Muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdga muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agar shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan sovish, mensimaslik paydo bo'ladi".

Farobiy tarbiyani ikkiga bo'lib, ya'ni aqliy va axloqiy tarbiya tarzida tavsif va tasnif etadi².

Aqliy tarbiya. Olim aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Bilimlarni u avvalo, ikkiga ajratadi: biri mulohazasiz, isbot-dalilsiz ma'lum bilimlar(fahmiy bilim), ikkinchisi, isbot dalilni, mantiqiy

¹ Ko'rsatilgan asar: 66-bet.

² M.Xayrullaev. Farobiy ruhiy prosesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. –T.: "O'qituvchi", 1967, 69-91-bet.

tafakkurni talab etuvchi bilim (idrokiy bilim). Farobiy ta'kidlashicha, birinchi tur bilimlari o'quvchilar tomonida osonlik bilan o'zlashtirilsa, ikkinchi tur bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchidan ma'lum aqliy malaka, idrok etish, fikrlashni talab etadi. Bu jarayonda o'qituvchidan mohirlik, san'at talab etiladi.

Farobiy asarlarida aqliy tarbiya, ilmning inson kamolotida tutgan o'rni borasida asosli fikrlarni ilgari suradi, misollar bilan dalillaydi.

Axloqiy tarbiya. Farobiy ta'limotida axloqiy tarbiya kishi hayotida eng muhim shartlardan biri bo'lib, aqliy tarbiya bilan uzviy bog'langan. Uning axloqiy tarbiya borasidagi fikrlari "Ideal shahar aholisining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Aristotelning "Etika" asariga sharhlar" kabi risolalarida bayon etilgan¹. Unga ko'ra axloqli odam o'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan bo'lishi kerak:

1. Bunday kishining barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsun.
2. Barcha masalani, muhokoma va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrning chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.
3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin.
4. Zehni shu darajada o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsun.
5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsun.
6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsun.
7. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'ynashdan yiroq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.
8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'onga va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

¹ Ko'rsatilgan asar: 82-bet.

9. Ruhi g'ururli, o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga intiladigan bo'lsin.
10. Dirham, dinor (o'z davri pul birligi) va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.
11. O'z tabiati bilan adolatni va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, ...adolatsizlikka naftat bilan qaraydigan bo'lsin.
12. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik va pastkashlik oldida qat'iy bo'lsin, ...qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.

Olim fikricha, bolada shu kabi xislatlar tarbiya toptirilsa, u tarbiyali, axloqli bo'ladi.

Farobiy o'zining "Musika to'g'risida katta asar" kitobida bola tarbiyasida musiqaning roli haqida batafsil to'xtaladi. Olim ta'kidlaganidek, kuydan, musiqadan zavqlana bilish inson ruhiyatining oliyjanob xislatidir.

Farobiy *arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqani* tarbiyaviy fanlar sirasiga kiritadi va bu haqda shunday deydi: "Bu to'rt fan tarbiyaviy fan deb ataladi, chunki ular tufayli o'quvchilar tarbiyalanadi. Bu fanlar o'quvchilarni yanada nazokatliroq qiladi va o'quvchilarning shundan keyin keladigan bilimlarni o'rganishi, uqib olishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi¹".

Olim musika fani haqida gapira turib, bu fan bolaning kamoloti uchun muhim deb biladi. Ruh kamoloti, davosida musiqaning o'rne benihoya katta ekanligini ta'kidlaydi. "Qanday qilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, qanday qilib o'z fikrimizni ifodalash, bayon qilish, so'rash va javob berish masalasiga kelganimizda, – deydi Farobiy, – men fanlar ichida eng birinchi fan – *til haqidagi fandir*, ikkinchi fan grammatika, uchinchi fan *mantiq*, to'rtinchi fan *poetika* deb tasdiqlayman"².

Farobiy "Aflotun falsafasi"³ asarida Aflotun asarlarini tahlil qilar ekan, "...Insonning baxtga erishishiga sabab bo'luvchi narsa qandaydir bilim va qandaydir hayot tarzi, ...atrofimizdagi narsalarning

¹ I.Husanxo'jayev. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: "O'rta va oliy maktab", 1963, 23-bet.

² Ko'rsatilgan asar: 23-bet.

³ Abu Nasr al-Farobiy. Aflotun falsafasi. Jahon adabiyoti jurnali. 2009, 6-son. 142-149-bet.

mohiyatini bilish, bu bilim – inson barkamolligining ibtidosi va uning eng buyuk maqsadi, ...insonning fozillarcha yashashga erishishi – haqiqiy saodat baxsh etishi, ...haqiqiy baxt qaysi bilimlar evaziga keladi, qanday xislat va harakat insonga baxt keltirishi mumkin”ligi haqida o’z mushohadalarini bayon etadi.

Umuman, Farobiy inson hayotidagi oliy maqsadni baxt-saodatga erishishda deb biladi va uni asarlarida bayon etadi.

Farobiyning ta’lim-tarbiyaga oid hikmatlaridan¹ :

O’zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishat va shahvoniy tuyg’ularga emas, balki kamolotga bo’lgan hirs-havas qolsin.

...

Har kimki ilm-hikmatni o’rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’-salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi axloq va odobli bo’lsin, so’zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo’lsin, diyonatli bo’lsin, barcha qonun-qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo’lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin; ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha moddiy narsalar to’g’risida bilimga ega bo’lsin.

...

Barcha hayvonlardan inson o’z alohida xossalari bilan farq qiladi, chunki unda jon bor. Ana shu jondan kuch paydo bo’lib, bu kuch tana a’zolari vositasi bilan harakat qiladi, bundan tashqari, unda shunday kuch borki, bu kuch tana a’zolari vositasisiz harakat qiladi. Bu kuch aqlidir. Aql faqat insongagina xos bo’lgan tug’ma quvvat, ruhiy kuch bilan bog’liqdir.

...

Inson yuksak kamolotga erishuv yo’lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o’zi intilayotgan so’nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

...

Baxt – kishi o’zi uchun izlaydigan ne’matdir: biror boshqa narsaga erishish uchun kishi aslo va hech qachon baxt sari intilmaydi.

¹ Qarang: O.Hasanboyev. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –T.:”O’qituvchi”, 1993, 35-36-bet.

Binobarin (baxtning) narigi tomonida ham inson erisha olmaydigan hech qanday muhimroq narsa yo'q.

...

“Munosib inson” bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa bu – kishilar bilan munosabatda, muloqotda rivojlanib, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir.

...

Kishilarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya “qattiq” va “yumshoq” usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Tarbiyachining asosiy vazifasi shogirdlarini baxtga erishish yo'llarini izlashga tayyorlashdan iboratdir. Agar tarbiyalanuvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan “yumshoq” usul qo'llaniladi, aksincha, mabodo ular o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, ularga nisbatan “qattiq” usul qo'llanishi mumkin.

...

Bilim, ma'rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim. ...daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Farobiy yashagan zamon va shu davrda yetishib chiqqan olimlar haqida nimalar bilasiz?
2. Farobiy qanday asarlar muallifi?
3. Olimning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlaridan misollar keltiring.
4. Farobiy hikmatlaridan namunalar ayting.

ABU RAHYON BERUNIY MEROSI – AQL-U HIKMAT MASH'ALI

O'rta asrda Yevropada Aliborona nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy alloma, xorazmlik olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (937-1048) o'z davrida 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Mazkur asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, tilshunoslik kabi qator fanlarga oid bo'lib,

jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qaralgan¹. U o'zining tarjimai holida o'zining oddiy oiladan chiqqanligini aytmoqchi bo'lib, shunday yozadi: "Otam Abdulvahob – qari, ilmsiz kishi edi, onam esa o'tin tashuvchi bo'lgan"².

Beruniy insonning o'ziga o'zi ishonishini, boshqalarga suyanmasligini uqtirib shunday deydi: "Kimki o'zining qarindoshlari, o'lib ketgan ota-bobolari bilan maqtanadigan bo'lsa, uning o'zi o'likdir, ular esa tirikdirlar".

Beruniyning "Hindiston", "Mineralogiya", "Saydana", "O'tmish davridan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari mashhurdir. Beruniy butun umrini ilm-ma'rifat egallashga bag'ishladi. Shu bois bo'lsa kerak, XIII asr tarixchisi Yoqut uni "Aql va ma'rifatda hali unga o'xshash biror kishini davron yarata olgan emas", deya ta'riflaydi.

Beruniy "Hindiston" asarida kishilarda kuzatiladigan yomonlik illatini qoralaydi, yomonlikni yo'qotish uchun uning ildizlarini topish kerakligini ta'kidlaydi. Yomonlikning asosi uch narsada, ya'ni *tama*, *g'azab* va *ilmsizlikda* deb biladi. Nafs va g'azabni eng halokatli dushman sifatida biladi, u kishiga ranj va gunohlar olib kelishini aytadi. Bularning ta'siriga berilib ketgan kishilar insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis hisoblaydi.

Beruniy rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasida nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Xabarga yolg'on aralashmasligi lozim. Xabar rost va yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki xabar beruvchining maqsadi turli xil bo'ladi. Shu sababli xalqlar kelishmovchiligi yuz beradi. Beruniy yolg'onchilik tufayli kishi adolatdan yuz o'girishi mumkinligini aytib, yolg'on so'zlovchilar omonatga xiyonat qilishi, boshqalar mulkini hiyla bilan o'zlashtirishi, o'g'irlik qilishi, umuman, jamiyat buzilishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Beruniy "Hindiston" asarining yettinchi bobida ma'rifat, insonning fikrlash qobiliyati, bilimdonlik darajasi, umuman, kishilarning turli fazilatlar haqida fikr yuritadi³.

¹ R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. Darslik. –T., 2017.

² Misol olingan manba: A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T. "O'qituvchi", 1997. 53-bet.

³ A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T. "O'qituvchi", 1997. 56-bet.

Beruniy muruvvat va shafqatni eng yaxshi insoniy fazilat hisoblaydi. Muruvvatli va shafqatli kishi o'z yaxshiligi, xushmuomaligi, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan ajralib turadi.

Olim boylikka berilmaslikni uqtiradi. Oltin va kumushning kishi uchun ba'zida hech qanday qimmatini bo'la olmasligini uqtiradi. U yozadi: "Chunki ularning har ikkalasi toshdirki, ularning o'zlari na to'ydiradi, na tashnalikdan saqlay oladi".

Beruniy baxt-saodat, faravonlik, tinch-totuvlikni, obodonchilikni bilim egallash va ma'rifatli bo'lishda deb biladi.

Beruniy hikmatlaridan:

Ilm – tanholikda hamroh, xilvatda – do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, begonalar oldida – eng sodiq do'st, jannat yo'lining minorasidir.

...

Do'st deb achchiq gapirganga emas, achchiqni shirin gapirganga aytiladi.

...

Oyna mening eng yaqin do'stim, chunki yig'layotganimda u hech qachon kulmaydi.

...

Do'stimki dushmanimga do'stlik qilarkan, uni men do'st hisoblamayman. Zaharga qo'shilgan shakardan ehtiyot bo'l.

...

Aflotun – do'st, lekin haqiqat ulug'roqdir.

...

Men dushmanlarimni do'stlarimga aylantirish orqali xonavayron qilaman.

"Hindiston" asaridan rivoyatlar

Bir ustoz o'z shogirdlari bilan qorong'u kechada yo'l bosib borardi. Ular yo'l bo'yida tik turgan noma'lum bir narsaga duch kelishadi. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanligini so'raydi. Shogirdlardan biri "bilmayman", ikkinchisi "bilmayman, bilishga qudratim yetmaydi", uchinchisi esa "tong yorishsa, ma'lum bo'ladi, qo'rqinchli narsa bo'lsa, tong yorishishi bilan yo'qolib ketadi. Qorqinchli bo'lmasa, ahvoli ravshan bo'ladi", deb javob beradi.

Ustoz har uchala shogirdning ahvoli, qobiliyatini ularning javobidan bilib oladi. Ustozga birinchi shogirdning bilimsizligi, ikkinchisiga bilimga qiziqishning yo'qligi, uchinchi ishni keyinga surishi, lekin ilmsiz bo'lsa ham, unga (ma'rifatga) intilish tuyg'usi borligi namoyon bo'ladi...

...

Basrada bir odam bo'lgan ekan. U har kuni o'zining eng yaxshi kiyimlarini kiyib, eng yaxshi ulovga minib chiqar va har doim kishilarning mushkulini oson qilib berar ekan. Undan buning boisi so'ralganda: "Hayotimning eng totli damlarida men eng go'zal kuychi ayollarning ohanglarini tinglab, jomlardan pok sharob sipqorganman. Ularning nafis ovozlari, nodir nag'malari daraxtlar shoxidagi qushlarning sayrashiga monand edi. Ammo o'shanda olgan lazzatlarim hozir mendan yaxshilik ko'rgan odamlarning holati, qardoshlarim huzurida eshitgan minnatdorchilik, xursandchiliklar oldida hech narsa emas", – deb javob beribdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Beruniyning bashariyat ilm-u faniga qo'shgan hissasi haqida qanday dalillarni bilasiz?
2. A.Oripovning "*Dengiz ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash'ali*" degan misralaridan nimalarni anglash mumkin?
3. Beruniyning qaysi hikmatlarini bilasiz?

ABU ALI IBN SINO – DONISHMAND PEDAGOG

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Sharqning ulkan qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'rta asrda turli ilm sohalarida – falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, tilshunoslik, adabiyot va boshqa fanlari doirasida o'lmas asarlar yozdi. Ko'plab fanlar doirasida asarlar yozgani, ilm rivojiga ulkan hissa qo'shganligi tufayli o'z davrida "Shayx-ur rays" (Olimlar raisi) unvoniga sazovor bo'ldi.

Ibn Sino, taxminan, minginchi yillarda Xorazmga keladi. Bu vaqtda u 20-21 yoshlarda edi. Xuddi shu davrda shoh Ma'mun Gurganjda "Akademiya" barpo qilgan edi. Unga Abu Rayhon Beruniy

boshchilik qilar edi. Akademiya atrofida o'z davrining eng yirik olimlari, ilm peshvolari to'plangan edi. Ularga Ibn Sino ham kelib qo'shiladi.

Ibn Sino yoshligidanoq o'z davri ilmlarini o'rganishga ishtiyoqmand bo'lgan, xususan, tibbiyot ilmiga qiziqdi, falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, she'riyat va boshqa fanlarga doir 300 dan ortiq asar yaratdi. Uning "Tib qonunlari", "Donishnoma", "Hayy ibn Yaqzon", "Hidoyat", "Risolatul tayr", "Tadbiri manozil" kabi asarlarida o'zining pedagogikaga tegishli qarashlari va ta'limotini bayon qiladi¹.

Ibn Sinoning barcha asarlari asosida inson, uning kamoloti, tarbiyasi masalasi alohida o'rin egallaydi. Uning bola ta'lim-tarbiyasiga doir fikrlari yuqori ahamiyatga ega. Olim tarbiya jarayonini Farobiy kabi *aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat* (hunar o'rganish) bilan uzviylikda ko'radi. U maktabda o'qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etishni oqlab chiqadi. Olim o'qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratadi. Ibn Sinoning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo'ymaslik lozim, o'qish-o'qitish ishlari asta-sekinlik bilan, yengildan og'irga qarab borishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan mashqlar ularning yoshiga mos bo'lishi, ularning mayil va qobiliyatlari hisobga olinishi kerak².

Ulug' pedagog ta'kidlashicha, bola voyaga yetgunga qadar ota o'z vazifalarini, farzand va oila oldidagi burchini bajara borishi kerak, uning eng avvalgi burchi bolaga yaxshi nom qo'yishidir. Mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishishi kerak. U yozadi: "Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan so'ng, savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Bunda, avvalo, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r, dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachini tanlash kerak bo'ladi. O'qituvchi sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak"³.

"Tib qonunlari" kitobida yozilishicha, o'quvchilarni birga, jamoa tarzda oqitish yaxshi samara beradi, bunda o'quvchilar ilmga chanqoqlik sezishadi, o'z bilimlarini yuzaga chiqarishga intiladi, bir-

¹ O.Hasanboyev. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –T.: "O'qituvchi", 1993, 37-bet.

² Ko'rsatilgan asar: 37-bet.

³ A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T. "O'qituvchi", 1997. 49-bet.

birlariga qiziqib, orqada qolmaslikka harakat qiladilar. Oqituvchi esa ta'lim berishga kirishishdan avval o'quvchilar xulq-atvorlarini o'rganishi, bilimlarini tekshirib ko'rishi, ularning qobiliyatlari bilan hisoblashishi kerak bo'ladi.

Olim fikriga ko'ra, ilm hosil qilishning eng asosiy yo'li – bolalarni yoshligidan boshlab ta'lim-tarbiya ta'siri ostiga olishdir. Shuning uchun olim: “Bola olti yoshga yetgach uni murabbiy va muallim ixtiyoriga topshirish kerak. Ta'lim-tarbiya asta-sekinlik bilan berilishi kerak. Birdaniga uni kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim”, - deydi.

Ibn Sino bolalarga bilim berganda, asosan, quyidagilarga rioya qilishni tavsiya etadi:

- 1) bilimni muayyan bir tartibda, izchillik bilan singdirish;
- 2) bilimlarni kitob orqaligina emas, balki hayot bilan ham bog'lab berish;
- 3) xilma-xil bilimlar berish, bolalarga turli ilmlar sirini ochib berish;
- 4) bilim berish bilan birga, tarbiya ham berish, ayniqsa, jismoniy tarbiya berish¹.

Odamzod uchun eng muhimi, olimning ta'kidicha, adolat sanaladi. Axloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Kishi bilimdon, o'qimishli bo'lsa-yu, axloqan barkamol bo'lmasa, odobsizlik va yomonliklarga yo'l qo'yadigan bo'ladi. U ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, xoinlik, zo'ravonlikni qoralaydi.

Beruniyning “Tadbiri manozil” (“Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash”) asaridan:

...Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda birlariga yordamlashadilar, yaxshi odoblarni qabul qiladilar.

...Agar sendagi yomon xususiyatni do'sting o'z vaqtida ko'rsatib, uni tuzatishga yordam bermasa, sendagi bu yomon xususiyat hozircha kichik bo'lsa-da, u keyinchalik odat tusiga kirib qolishi mumkin, uni tuzatish qiyin bo'lib qoladi.

¹ I.Husanxo'jayev. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. –T.: “O'rta va oliy maktab”, 1963, 25-bet.

...Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan to'g'ri foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi. Buning uchun "Tadbiri manozil"dan foydalanish kerakki, unda tarbiyaning to'g'ri usullari ko'rsatilgan.

...Inson o'z badanidagi yaraga qanday ehtiyotkorlik bilan muomala qilib, yara qonini sekinlik bilan yuvsa, nasihat oluvchi kishiga ham shunday muomala, munosabatda bo'lishi kerak.

Xotin kishi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: xotin kishi bilimli bo'lsin; u dinga ishonishi kerak; uyatchan, sharm-hayoli; tabiatan jasur; o'z erini qattiq sevuvchi; ezma bo'lmasligi kerak. U o'z eriga bo'ysunishi, to'g'ri bo'lishi; kamtar va farosatli bo'lishi kerak; u o'z sha'niga dog' tushirmasin; eri bilan o'ta ehtiyotkorona, hurmatini joyiga qo'yib muomalada bo'lsin. O'z vazifasi va burchini yaxshi biladigan, oila xo'jalidagi narsalardan to'g'ri, tejamli foydalana oladigan, o'zining tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotishga harakat qiladigan bo'lsin.

Luqmoni hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasihati¹

- Ey farzandim, ulug' va qudratli Yaratuvchini tani.
- Kimga pand-u nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil.
- Do'stni qiyin kunda sina.
- Ablah va nodon kishilardan qoch.
- Ayolga qattiq ishonma.
- Dono va ziyrak do'stni tanla.
- Sofdil va dono kishilar bilan maslahat qil.
- So'zni isboti bilan gapir.
- Yoshlikda ikki dunyo ishlarini qilib ol.
- Do'st-dushmandga yuzingni ochiq tut.
- Xarjni kiringa qarab qil.
- Hamma ishda o'rtacha ish tut.
- Birovning uyiga kirganda ko'z va tilingga ehtiyot bo'l.

- Libosingni va badaningni toza tut.
- Jamoat bilan hamdard bo'l.

- Farzandingga ilm-adab o'rgat.

¹ "O'zbek pedagogikasi tarixi" kitobidan qisqartirilib olindi.

- Etik va kovushni o'ng oyoqdan kiy, yechishda chap oyoqdan.
- Tunda gapirsang ohista va muloyim gapir, kunduzi gapirsang, yon-atrofingga ehtiyot bo'lib gapir.
- Oz yeyish va oz gapirishni odat qil.
- Xotin va bolaga sir aytma.
- O'qimay ustozlik qilma.
- Hojatmand kishilarni noumid qaytarma.
- Boyliging miqdorini do'st-dushmanga bildirma.
- Barmoqlaringni og'iz va burningga tegizma.
- Odamlar oldida tish kovlama.
- Jiddiy so'zni hazilga qo'shib gapirma.
- O'zingni xotinlardek yasatma.
- Bolalaring nima desa shuni qilaverma.
- Ishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yma.
- Mol-dunyo topaman deb o'zingni qiynoqqa tashlama.
- Kattalardan oldin yurma.
- Mahalla boshida bekorchi va beboshlar bilan o'tirma.
- Pichoqsiz, uzuksiz va pulsiz bo'lma.
- O'zingni o'ta xor qilmaslikka intil.
- Xoksor va kamtarin bo'l...

...

Buyuk alloma Ibn Sino so'zlash jarayonida quyidagilarga amal qilish lozimligini yozadi:

1. Nasihat (nutq) qo`pol ohangda bo`lmasligi kerak.
2. Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur.
3. Nutqni o`rtoqlik suhbatida tarzida olib borishi kerak.
4. ... Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan quloq solayotgan bo`lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur¹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ibn Sino qanday asarlar muallifi?
2. Ibn Sino qaysi ilm-fanlarga munosib hissa qo'shgan?
3. Olimning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlaridan misollar ayting.

¹ B.O`rinboyev, A.Soliyev Notiqlik mahorati. –T., 1984. 27-bet.

ABULQOSIM FIRDAVSIY TA'LIM-TARBIYA HAQIDA

Abulqosim Firdavsiy (X-XI) jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan, Tus (hozirgi Eronning Firdavs sharhi) dan yetishib chiqqan so'z san'atkori hisoblanadi. U yoshligidan xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot va tarixga qiziqadi, qadimgi

ma'lumotlar, afsona va rivoyatlarni yig'ib, 35 yoshidan "Shohnoma" asarini yozishga kirishadi va uni 1010-1011-yillarda yozib tugatadi. 60 ming baytdan iborat asarni Eron shohi Sulton Mahmudga taqdim etadi.

"Shohnoma" tarixiy ma'lumotlar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, xalq ijodining turli namunalaridan iborat bo'lib, vatanparvarlik, qahramonlik, ezgulik va odamiylikni tarannum etadi. Asarda barcha fazilatlar va ularga qarshi turuvchi illatlar qalamga olinganligiga guvoh bo'lamiz.

Firdavsiyning "Shohnoma" asari nafaqat qahramonlik, balki pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga qaratilgan asar hamdir. Muallifning mehnat va mehnatsevarlik, ilm va bilimdonlik, axloq va odob, saxovat va saxiylik, adolat va odillik haqidagi fikrlari asar mazmuniga singdirilganligiga guvoh bo'lamiz. "Mehnatsiz boylik kelmaydi, kimki dangasa bo'lsa, unga boylik kelmaydi... Yosh kishi dangasa bo'lsa, hayotning qalbi undan to'yadi (bezor bo'ladi)", deyiladi asarda.

Aql va aql egallash, uning hayotda tutgan o'rni haqida shoir to'lqinlanib yozadi. Inson uchun aql va odob rahnamo ekanligini ta'kidlaydi. Kimki aqlsiz bo'lsa yo'ldan adashishi, aql yo'l ko'rsatuvchi charog'on nur ekanligini bitadi:

Aql bir tirik jon, bilmaydi zavol,
Aql turmush asli, buni yodlab ol.
Aql yo'l ko'rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqli obod.
Aqldan g'amginlik, shodlik, o'ktamlik,
Aqldan borlig-u yo'qlig-u, kamlik.
Agar aqli xira bo'lsa har inson,
Shodlikka erisha olmas bir zamon.
Aql va shodlikdan bezak topsa dil,
Uni gavhar to'la ganjga qiyos qil¹.

¹ N.Mallayev. Abulqosim Firdavsiy. 1-kitob. –T., 1962. 608-bet.

Firdavsiy ta'kidicha, inson boylikka ega bo'la turib, tajribasiz bo'lsa, hunar egallay olmaydi. Har bir kishi o'z boshidan qiyinchiliklarni kechirgan bo'lishi kerak, shunda u ma'nan boyib boradi.

“Shohnoma”da shahzodalar, ularning odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasi, ezgu ishlariga alohida e'tibor qaratadi. Ularning har ishda o'rnak, ibrat bo'lishga chorlaydi. U yozadi:

Toza bo'lsa agar podshoh zoti,
Yaxshilik-la qolar jahonda oti.
Unga uch nimarsa bo'ladi orzu,
Agar uchdan o'tsa, to'rt bo'ladi u.
Pok zot-u hunar-u nasabing agar,
Birlashsa, ajoyib mevalar berar...
Hunar o'rganursan, har xil kishidan,
Qochmasang, mehnat-u ranj, tashvishdan¹.

Fazilatlarining boshi sanalgan yaxshilik, ezgu ishlarga oshno bo'lish, odamzodning yashashdan maqsadi yaxshilik qilish ekanligini ta'kidlab, adib shunday deydi:

Jahonda qoldirsang, agar yaxshi nom,
Bizdan so'ng faqat shu etadi davom.

...

Jahonni bermaylik, keling yomonga,
Barchani boshlaylik yaxshi tomonga.

To'g'ri bo'lish, rost so'zlash, yomonlikni qoralash borasida ham shoir atroflicha, chuqur, falsafiy fikrlarni bayon etadi. Adib Bahrom tilidan quyidagicha yozadi:

Rostgo'ylik, saxiylik – jon-u tani, deb yoz,
Egrilik, baxillik dushmani, deb yoz.
Ajdodlar rasmiga ehtirom saqlab,
Sizni ham shu yoldan eltgum ardoqlab².

Shoir *mehnat va mehnatsevarlik, olim va bilim, aql va himmat* kabi masalalar bo'yicha hikmatomuz misralar yaratdi. Kishilarni oqil va odil bo'lishga chaqiradi. Zolimlik, qonxo'rlik, tanballik va

¹ Misol olingan manba: A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T. "O'qituvchi", 1997. 241-bet.

² Ko'rsatilgan asar: 244-bet.

himmatsizlikni qattiq qoralaydi. U aql-zakovat, ilm-hunarni, xayr-saxovatni targ'ib etadi, yoshlarni ilm o'rganishga undaydi. Saltanat uchun ham, hayotiy munosabatlarda ham, el ishi uchun ham aql-bilimning bo'lishi shartligi borasida gapiradi:

Hamisha aqlingni rahnamo etgin,
Noloyiq ishlardan nariroq ketgin.

Firdavsiy insonning yaratuvchanlik faoliyatini, ijodiy mehnatini olqishlar ekan, kasb-hunarni har qanday boylikdan afzal deb biladi: „Hunar eng a'lo gavhardan yaxshidir, Gavhar ham hunarmand tomonidan pardoizlanadi-ku, axir“, – deya uqtiradi shoir.

„Shohnoma“da zulm-zo'rlik, adolatsizlik qoralanib, yaxshi so'zlash fazilat ekanligi aytiladi. „Kel, jahonni yomonlarga topshirmaylik, hammamiz harakat qilib, qo'llarimizni yaxshilikka cho'zaylik. Yaxshilik va yomonlik bir xilda emas, avlodlarga yaxshilik yodgorlik bo'lib qolsin“, – deydi shoir.

Firdavsiy yoshlar iqtidori, bilimi, tajribasini oshira borishi haqida ibratlar aytadi. „*Eshitgan so'zingni, bilimingni aslo unutma, chunki so'z bilim boshidagi tojdir...* Gulning hidi bo'lmasa, uning rangi haqida so'zlama, chunki kishi (qizil) olovdan obro' topolmaydi“, – deydi Firdavsiy¹.

Xullas, Firdavsiyning „Shohnoma“ asari didaktik xarakterga ham ega bo'lib, unda qadimiy hayotiy haqiqatlar – inson tabiatida mavjud bo'lgan muqaddas fazilat-u, insoniylikda qoralanadigan illatlar yorqin misollar bilan bayon etilgan. Bu asar shoirning o'zi aytganidek:

Men aslo o'lmasman, mangu yasharman,
Aytgan har so'zimda qayta yasharman.
Insof-u e'tiqod kimga bo'lsa yor,
Menga tahsin aytib, etar baxtiyor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Firdavsiyning „Shohnoma“ asarlari yozilish tarixi haqida nimalar bilasiz?
2. Firdavsiyning „Shohnoma“ asari mazmuni haqida gapiring.
3. Olimning ezgu fazilarlar, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlaridan misollar ayting.
4. Firdavsiyning „*Men aslo o'lmasman, mangu yasharman, Aytgan har so'zimda qayta yasharman*“ kabi misralarini izohlang.

¹ H.Homidov. „Shohnoma“ ning shuhrati“. – T.: „O'qituvchi“, 1991, 34-35-bet.

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARIDA FARZAND TARBIYASI

Unsurmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashovchi gilon qabilasida 412- hijriy (1021-1022) yilda dunyoga keladi. “Qobusnoma” asarini 63 yoshida, keksalik yoshida yozadi. U o'g'liga murojaat qilib, “Pisaram, man pir shudam”, deb o'zining qariganini aytiob, asarini boshlaydi. “Qobusnoma” asarini o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab yozadi¹. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, adib o'zining hayotiy tajribalari bilan o'g'li Gilonshohni tarbiyalashni istaydi va pand-nasihatlarini o'g'li uchun qimmatbaho, bitmas-tuganmas noyob meros deb biladi.

“Qobusnoma” asarini Ogahiy o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asarning 1967-yilgi nashrini S.Dolimov nashrga tayyorlab, o'quvchilarga tortiq qiladi.

Asarning dastlabki to'rt bobi Oллоhga hamd-sanolar, murojaat bo'lib, qolgan 40 bobi turmush tarzi, hayotiy voqealar, ta'lim-tarbiyaga oiddir. Unda ota-onani hurmat qilish, suxandon bo'lish, ilm va hunar egallash, qarilik va yigitlik, nafsni tiyish, mehmondorchilik, mol to'plash va uning salbiy oqibatlari, uxlash va dam olish, uy va yer sotib olish, omonatni saqlash, uylanish va qiz tanlash, dehqonchilik qilish, juvonmardlik haqida va h.k. hayotiy turmush tarzi, ularni bilish va amalda qo'llash borasida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan².

U yozadi: “Ey farzand, umidim shuki, sen ushbu pandlarni qabul qilgaysan, (Bu bilan) men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'laman. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishilariga qoldirib ketadilar. Men dunyodan mana shu so'zlarni hosil qildim, sen men uchun eng qimmatbahosan. Men safar vaqti nimaki hosil qilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymagaysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan”. Garchi asar o'g'li Gilonshohga atab yozilgan bo'lsa-da, “Qobusnoma” o'z nomi bilan qomusiy ahamiyatga ega bo'lib, butun bashariyat uchun beminnat xizmat qila oladigan manba sanaladi.

Asarning dastlabki boblaridan biri – beshinchi bobi “Ota-onani hurmatlash haqida” deb ataladi. Bunda adib farzandlarni ota-onani

¹ “Qobusnoma”. –T.:”O'qituvchi”, 1967, 5-bet.

² Ko'rsatilgan asar: 12-13-bet.

hurmatlashga chaqiradi. U yozadi: "...Ota-onani nima uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga keltirmagil, bilgilki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turarlar, ...ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning seni haqingdagi duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur. Zinhor meros olmoq hirs bilan ota-onang o'limini tilamag'ilki, chunki ota-ona o'lmay yursalar ham, rizqing yetishaveradi, ...farzanding seni hurmat qilishlarini istasang, sen ham ota-onagni hurmat qil, chunki sen ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham senga shunday ish qiladi".

Adib yaxshilikni oqlaydi, farzandini birovlariga qo'ldan kelguncha yordam berishga chorlaydi. Kaykovs yozadi: "Xalqning ozgina yaxshiligini ham ko'p ko'rgin, qaysi narsa xalq manfaatiga yaqin turishini o'rgan". U baland martabaga ega bo'lishni nasl-nasab bilan bog'lamay, buning boisi aql va hunarda deb biladi.

Kaykovus mehnatsiz ilm-ma'rifatga ega bo'la olmaslikni aytadi. "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir, chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib, badanni o'zingga bo'ysundirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan", – deb yozadi adib.

"Ilm talabi" bobida Kaykovus yozadi: "Ey farzand, bilgilki, avval kasblar haqida bayon qilaman. Har kimki bir ishni qo'liga olsa, o'sha ishni yaxshi bilsin va mashq qilsin, toki u ishdan ko'p foydalangay..."

Kaykovus ilm olish borasida ilg'or fikrlarni ilgari suradi. Kishining ilmga tolib bo'lishi, uni o'rganishga bel bog'lashida ehtiyotkorlik va qanoatni ma'qullaydi. Ilmni do'st, bekorchi hayotni dushman deb bilish, sabr-matonatli bo'lish, jizzaki bo'lmaslik, kech uxlab erta turishni odat qilish, bir so'z bilan aytganda, ilm yo'lida boshqa barcha istaklardan voz kechish kerakligini ta'kidlaydi.

Sharq donishmandi Kaykovus asarida nutq odobi haqida o'g'liga qarata: "Bilgilki, hamma hunardan so'z hunari yaxshidir", – deydi. Bu bilan u so'z barcha mushkulotlarning kafolati bo'la olishini ta'kidlaydi. Qolaversa, so'z qudrati bilan baland martabalarga erishish mumkinligini aytadi. U notiqlikni egallashning birinchi sharti "tinimsiz mehnat, o'rganishdir", deb biladi. Ikkinchidan, nutqing fe'ling kabi go'zal bo'lsin, deydi.

Donishmand nafsni tiyish haqida gapirar ekan, ovqatlanish va uning qonun-qoidolari haqida so'zlaydi: "...Agar sening oldingda mazali ovqat turgan bo'lsa, boshqalar oldida bu ovqat bo'lmasa, shu

ovqatni boshqalar bilan baham ko'rigin, dasturxon oldida qovoq solib o'tirmagin, ovqat uchun oshpazni koyimagin", – deya uqtiradi muallif.

Kaykovus bolalarga bilim berish, ularni o'qitish, tarbiyalashni ota-onaning eng muhim, muqaddas burchi deb biladi. "Hatto farzand aqliy jihatdan zaif bo'lsa ham, unga ta'lim-tarbiya berish lozim. Agar sen, – deydi Kaykovus, – o'g'lingni tarbiyalamasang, uni zamon, sharoit tarbiyalaydi". Bunda Kaykovus *"kimni ota-onasi tarbiyalamasa, uni kechalar, kunlar tarbiyalaydi"*, degan hikmatni keltiradi.

Xullas, "Qobusnoma" yoshlar uchun, ularning ta'lim-tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

"Qobusnoma"dan parchalar¹:

Ilm talabi...haqida

...Barcha kasbning orasida ilmga tolib bo'lsang, ehtiyotkor, qanoatli bo'lgil. Ilmni do'st, bekorchi hayotni dushman tutgil. Sabrmatonatli bo'l, jizzaki bo'lmagil, kech yotgil, erta turgil, kitob va darsga qattiq berilgil, ishdan zerikmagil, yod olgil, takrorlagil, haqshunos bo'lgil, nimani eshitsang yod qil, taqlidga rozi bo'lma, kitob, qalam, qalamtarosh va shunga o'xshash narsalarni hamisha yoningda saqla. Bulardan boshqa narsalarni yodingga aslo keltirma. Oz so'zlagil, uzoqni o'ylagil. Agar har bir tolibi ilm shu xilda bo'lsa, zamonaning yagona kishisi bo'lur...

Suxandonlik bobidan

...Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatg'il, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamag'ilki, foydasizdir. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki, undan hunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: "So'z bir nash'adur, undan xumor paydo bo'lur".

...So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq orasida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilishni, shaklga e'tibor berish kerakligini, to'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri va asosli bo'lmog'i

¹ "Qobusnoma". –T.: "O'qituvchi", 1967.

lozimligini, beshinchidan, nutq ilmiy asosga ega, ta'sirchan bo'lishi lozimligini aytadi.

...Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm-ma'rifatni bilaman deb da'vo qilsang, hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan.

Qarilik va yigitlik haqida

Ey farzand, sen har qancha yigit bo'lsang ham, aqling qari bo'lsin. Men senga "Yigitlarga o'xshamagil" demoqchi emasman. Yigitlikni mukamallashtir, yengil tabiatli yigit bo'lma, yigitlarga og'irlik munosibdir,...yigitlik zamonidan foydalangin, qarigan chog'ingda o'z holingga yig'lamagil. Har qancha yosh bo'lsang, o'limdan bexabar bo'lma, chunki o'lim na qarini, na yigitni qo'yadi.

...Yigit o'zini hammadan dono deb biladi, ammo shu ishi bilan hammadan nodondir. Bas, ey farzand, ana shunday yigitlardan hisoblanma, qarilarni hurmat qil, ularning haqiga behuda so'z aytma, ularning oldida odob va kamtarlik bilan so'zla.

...Qarilik illati kundan-kun yomonroq bo'ladi, yaxshilik umidi bo'lmaydi, chunki faqir bir kitobda o'qigan edimki, odamning quvvati o'ttiz to'rt yoshgacha har kuni ko'payib boradi, o'ttiz to'rt yoshdan keyin xuddi quyosh osmonning o'rtasiga yetgandek ko'paymaydi va kamaymaydi, quyoshdek yurishini sekinlashtiradi. Qirq yoshga yetgandan so'ng to'rt yoshgacha kishi har yili o'zida kuchsizlik (nuqson) seza boshlaydi, bunday nuqsonni ilgari ko'rmagan bo'ladi,... agar yoshi oltmishdan o'tsa, har bir soatda dard va alam ko'radi, bunday dard, alamni o'tgan soatda ko'rmagan edi.

...Bekorga yashamagin, hamma ishingni tartib bilan qil...

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kaykovus hayoti va ijodi haqida gapiring.
2. "Qobusnoma" qanday mazmundagi asar?
3. "Qobusnoma"ning tuzilishi, boblarining nomlanishi haqida gapiring.
4. Asarda qanday fazilatlar ulug'langan, qaysi illatlar qoralangan?

YUSUF XOS HOJIBNING IBRAT UMMONIDAN BIR QATRA

Yusuf Xos Hojib XI asrda yashab, turkiy tilda ijod etgan buyuk shoir, davlat arbobi, donishmand hisoblanadi. Yusuf qadimgi Bolosog'unda tug'ilgan. Uning bizgacha "Qutadg'u bilig" asari yetib kelgan. Asar 6 ming 409 baytdan iborat bo'lib, asarning bizgacha uch nusxasi (Vena nusxasi, Qohira nusxasi, Namangan nusxasi) yetib kelgan¹.

Asarning tub mohiyatini markazlashgan davlatni idora qilish, yana-da mustahkamlash, turli xon, beklar o'rtasida o'zaro inoqlikni ta'minlash, adolatli, odilona siyosat yuritish, bir so'z bilan aytsak, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy fikr-mulohazalar tashkil etadi. Shuningdek, asar pandnoma ruhida deyish mumkin, unda odob-axloq, ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi.

Asarda yoshlar kamoloti, ma'naviy yuksalishi uchun benazir fikrlar bayon etilgan. Unda shaxs tarbiyasi, uning jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi uchun amal qilishi lozim vazifalar, komillik shartlari, hayotni mazmunli o'tkazish asoslari va boshqalar haqida chuqur, asosli fikrlar bayon etilgan.

Asar nasriy va she'riy muqaddimadan tashqari 71 maxsus bobdan iborat. Asarda muayyan bir voqea-hodisalar, ularning mohiyati savol-javob, munozara shaklida olib boriladi².

Mazkur asar turli mavzular, xususan, ajdodlarimizning qadimgi ta'lim-tarbiyasi, tarbiya usullari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni ko'rsata olishi bilan ham xarakterlanadi. Bu asar orqali XI asrdagi ijtimoiy, oilaviy tarbiya, o'quv dargohlaridagi fan tarmoqlari, o'qitish tizimining o'ziga xos tamoyillari haqida ma'lumot olamiz. Muallifning aqliy, axloqiy, jismoniy, nafosat tarbiyasiga doir fikrlari bilan tanishamiz³.

Asarda o'quv va bilim olish jarayoniga alohida e'tibor beriladi. Asarda o'quv-bilimni tundagi mash'alaga, bilimni esa taralayotgan nurga qiyoslaydi, bilim kishini, uning hayot yo'llarini yoritishi, ro'shnolik berishi aytiladi. Jumladan, Adib yozadi:

¹ Adabiyot. 8-sinf uchun darslik majmua. . –T., 2014, 43-bet.

² Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig („Saodatga yo'llovchi bilim“). –T.: „Fan“, 1971.

³ A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T. "O'qituvchi", 1997. 63-bet.

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar.
Zakovatli uqar, bilimli bilar,
Bilimli, zakovatli tilakka yetar.

...

Boyat kimki bersa uqush, o'g, bilig,
Uqush, ezgulikka uzatti alig.
Ya'ni;
Xudo kimga uquv, aql-idrok, bilim bersa,
U ko'p ezguliklar qilishga qo'l uzatadi¹.

Yusuf Xos Hojib “bilim shunday bir boylikki, uni hech bir qaroqchi olib bilmaydi”, deya uqtiradi. Bu bilan yoshlarni bilimga chorlaydi. Bola yoshligidanoq bilim va hunarga undalmasa, so'ng kech bo'lishini yozadi:

Bolam tutsin desang, donolik yo'lin,
Kichiklikdan tegiz bilimga qo'lin.

Bu misralar bilan nafaqat bilim egallash, balki kasb-hunar, mashg'ulot o'rganish ham nazarga tutilgan.

Yusuf Xos Hojibning olimlar haqidagi fikrlari alohida xarakter kasb etadi. Adib ularni maqtaydi, ezgu xislat va fazilatlarini ajoyib so'zlar bilan ta'riflaydi. Olimlar yaroqli va yaroqsiz, loyiq va noloyiq ishlarni farqlab, ayirib beruvchi, to'g'ri, haqiqiy yo'l ko'rsatuvchilar bo'lib, ularning ilmlari diyonatning negizlari, deya ulug'laydi. *Olimlarga ilmiga loyiq in'om va mukofotlar berib turish, moddiy jihatdan quvvatlash, xizmatlarini bajo keltirish, ranjitib, dillariga ozor berib qo'ymaslik kerak.* Olimlar va donolar bo'lmaganda hatto yerga don ekib, hosil olish mumkin bo'lmas edi. Olimlarning ilmlaridan o'rinli foydalana bilish, amalda uni qo'llash kerak, deb ta'kidlaydi².

Yo'q esa jahonda gar olim, dono,
Ekib unmagay erdi yerda dona.
Ularni juda sev, qadrla so'zin,
Bilimlarini o'rgan ko'pin yo ozin.
Ular ilmi xalqqa bo'ladi chiroq,
Chiroq yonsa, tunda adashmas oyoq.

¹ “Qutadg'u bilig”, 84-bet.

² Q.Karimov. Ilk badiiy doston. –T.:”Fan”, 1976, 72-bet.

Ular ilmi kelgay juda senga qo'l,
Haqiqat qidirsang, ular aytsa yo'l.

Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining donishmandi, turli ilmlar haqida bahs yuritishga qodir, fozil inson edi. U ilm-fan, bilim-zakovat targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Asarda ilm-ma'rifat, bilim-zakovatga alohida boblar ajratadi¹. Adib *jamiyki ezgu ishlar bilim evaziga yuzaga kelishini, bilim osmon sari yo'l ocha oladigan qudratga ega ekanligini* aytadi.

Dunyoda odam paydo bo'lgandan to hozirgacha bilimli, zakovatlilargina ezgu va odil siyosat yuritib kelganligi, bilim, zakovat tufayli yomonliklarga barham bera olish mumkinligi, el va xalqni boshqarishda bilim, tafakkur, zakovatga tayanib ish tutish lozimligi ta'kidlanadi asarda. Masalan:

Zakovat-la loyqa bo'ladi tiniq,
Bilim-la suziladi kir, bulg'oniq.
Olam tutguchi er zako bo'lsa xo'b,
Elin boshlaguvchi dono bo'lsa xo'b.
Shu ikkisi birla bo'lar er yetuk,
Yetuk er jahongir bo'ladi tetik.
Bu ikkisi-la evlamasang yo'ling,
O'shanda qilichga uzatgin qo'ling.

O'g'il-qiz, ya'ni farzand tug'ilganda ularga bo'lgan ota-ona e'tiborini shoir shunday izohlaydi:

O'g'il-qiz tug'ilsa...
O'g'il-qiz tug'ilsa, yaxshi bilki, bas,
Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.
Ustozning yaxshisin tanla, albatta,
O'g'il-qiz pok o'sar, yomondan chetda.
O'g'il-qizga o'rgat bilim ham odob,
Baxtga yor bo'lar u, bo'lmagay xarob.
O'g'ilga xotin ol, qizni erga ber,
Qayg'u-g'amsiz yana ayo qutli er.
O'g'il topsin san'at – hunarda kamol,
Bu hunar bilan u tera berar mol.
O'g'ilni tergab tur, bo'sh qo'yma zinhor,
Benaf, bebosh bo'lar, yugurar bekor.

¹ Q.Karimov. Ilk badiiy doston. –T.: "Fan", 1976, 88-89-bet.

...

Bilim va hunar o'rgatish haqida
Qarab turma: o'rgat bilim va hunar,
Har qanday ezgulikdan hunardan unar.
Behuda bo'sh qo'yma, tergap tur faqat,
Tergab tursa, o'g'il so'ng topadi baxt.
Nima der, eshitgin qari bir kishi:
...Bilimdan boshlanar donolik yo'li,
Bilim bilan kishi judo hayvondin.
Buyukroq nima bor, qani ayt ondin?

Yusuf Xos Hojib yomon odatlarni sanay turib, ularni qoralaydi, bu illatlar yomonlikka qarab olib borishi, undan qutilish zarurligi, illatdan voz kechib, fazilatlarni egallab borish lozimligini uqtiradi. Illat haqida:

Bu bir qancha kishiga balo,
Buni bilib olsang, bo'ladi a'lo.
Bularning boshida tilning yolg'oni,
Yana biri – aldov, bilib ol oni.
Yana bir boshqasi may ichsa suyib,
Bo'lar ish bo'ladi, dil qolar kuyib.
Yana biri ortiq qiliq, harakat,
Bu ortiq qiliqdan ketar barakat.
...Falak boqmas unga boshi aylanar,
Boshida tegirmon toshi aylanar.

Shoir salom berish, uning mohiyatini izohlaydi. Salom bermoq birovga sog'liq tilash, salomatlik ulashish bilan barobar, deya ta'kidlaydi:

Omon berdi elga salom beruvchi,
Salomatlik topdi alik oluvchi,
Salom bo'ldi odam tinchiga garov,
Sog'liq olar salom bilan qoluvchi¹.

¹ Misol olingan manba: O.Hasanboyev. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. . – T.: "O'qituvchi", 1993, 49-51-bet.

Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy, ya'ni bog'li holda tashkil etish lozimligini bayon etadi, o'g'il bolalarning bir necha hunar va san'at turlarini o'rganishga undaydi, ularning kelajak hayot, jamiyat uchun muhimligini ta'kidlaydi. Umuman, asarda til odobi, bilim egallash, poklik, kamtarlik, saxovat, himmat, sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat – barcha insoniy fazilatlar ulug'lanib, inson tanasida, ruhida bo'lishi mumkin bo'lgan shaytoniy illatlar qoralanadi. Mazkur asar o'z davrida ham, bugungi kunda ham o'quvchi-yoshlar uchun, ularning kelajagi uchun o'ta muhim hayotiy qonun-qoidalar mujassamdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. “Qutadg’u bilig” asarining tuzilishi va mazmuni haqida nimalar bilasiz?
3. Shoirning “*O’quv qayda bo’lsa, ulug’lik bo’lar*” tarzidagi misrasini izohlang.
4. “Qutadg’u bilig” asari qaysi asarlarga o’xshaydi va qaysi jihatiga ko’ra?

**AHMAD YASSAVIY “HIKMATLARI”DA O’S MIR
KAMOLOTI**

“Turkiston mulkining shayxul mashoyixi” (Navoiy, “Nasoyim ul-muhabbat”) Ahmad Yassaviy Qozog’istonning Sayram viloyatida ma’rifat va javonmardlikka ixlosi baland bo’lgan nufuzli Ibrohim ota oilasida 1041-yilda dunyoga keldi. Onasi Muso shayxning qizi Oysha xotun bo’lgan. U yetti yoshida Yassiga borib, birinchi ma’naviy ustoz Arslonbob bilan uchrashadi, ilk sabog’ini undan oladi. So’ng ustoz Arslonbobning da’vati, sa’y-harakati bilan tahsilini davom ettirish uchun Buxoroga keladi. Bu davrda Buxoro ilm-fan, ziyo maskanlaridan biri, aniqrog’i, asosiy ilm-fan o’chog’i bo’lgan. Ko’plab ilm peshvolari, boy kutubxonalar maskani bo’lgan bu mo’tabar yurt bo’lajak donishmand uchun behad, betakror ma’naviy sarchashma bo’ldi desak, xato bo’lmaydi. Bu yerda olim tasavvufiy ilmlarni o’rgandi, arab, fors tillariga mehr qo’ydi.

Ahmad Yassaviy hayotidagi eng muhim voqea mashhur inson Yusuf Hamadoniy bilan uchrashgani va unga murid tushgani bo'ldi. Uning ta'sirida, mehnatlari natijasi o'laroq komillik martabaiga erishdi.

Ahmad Yassaviy so'ngra Turkiston sari yuzlanadi va yangi bir tariqatga asos soladi. Bu tariqat turkiy xalqlar orasida "Yassaviya tariqati" nomi bilan shuhrat qozonadi.

Ahmad Yassaviy hikmat yozish an'anasini boshlab bergan adib hisoblanadi. U o'zining "Devoni hikmat" ijod to'plamida insoniy fazilatlarni ulug'lab, shaytoniy hislar, illatlarni qoralaydi, insoniyatni ezgulikka undaydi¹.

Ahmad Yassaviy hikmatlari ko'lami jihatdan rang-barang bo'lib, unda bosh mavzu "inson" va uning kamolotidir. Hikmat so'zining dastlabki ma'nosi o'ta donolik, donishmandlik, aql-zakovat demakdir.

Chimkentlik olim Mirahmad Mirxoldor o'g'lining "Xoja Ahmad Yassaviy" (Chimkent, 1992) nomli risolasida ulug' shayx, uning bolalik onlari, aqli-odobi haqida juda qimmatli rivoyatlar keltirilganki, o'quvchiga Xoja Ahmad Yassaviyning yoshligi, uning naqadar zukkoligi, aql-zakovati, imon-e'tiqodi to'g'risida nisbatan batafsilroq ma'lumotlar bera oladi. Asarda keltirilishicha, bir kun saboq tamom bo'lgach, ustoz Shaxobiddin Isfijobiy ilmi toliblarga: "Har biringiz keyingi darsga bitta xo'roz yoki tovuqni Alloh taollo ko'rmaydigan joyda bismil (so'yib) qilib kelingiz", deb topshiriq berdi. Ertasi kuni barcha bolalar ustozlarining topshiriqlarini ado etib kelishdi. Ahmad esa bitta xo'rozni tirik holda keltirdi. Ustoz sababini so'raganda Ahmad: – Ustoz, uzr, men xo'rozni bismil qila olmadim. Xo'rozni qayerga yashirib so'ymoqchi bo'lsam, Tangri taollo ko'rib, qarab turadi. – Barakallo, – deb ustoz, Ahmadning imon-e'tiqodi uchun uning peshonasidan o'pib qo'ydi².

Bu hikmatning o'ziyoq yosh Ahmadning umr yo'li barcha uchun namuna bo'la olishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, barcha millatlar, xalqlar va ularning adabiyotida, ayniqsa, Sharq xalqlari, chunonchi, o'zbek xalqida nodonlik juda qoralangan. Buni yuqorida nomlari zikr etilgan olim-u fuzalolar asarlarida ham ko'rib o'tdik. Mazkur masala Ahmad Yassaviy

¹ Ahmad Yassaviy. Deboni hikmat. . –T., 1992.

² A.Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. –T.: "O'qituvchi", 1997. 80-bet.

hikmatlarida bosh mavzulardan biri bo'lgan, desak yanglishmaymiz. Ahmad Yassaviy aytganidek, nodonlik betamizlik, yovuzlik, befarosatlikni keltirib chiqaradi. Bundan o'sib kelayotgan yosh avlod ehtiyot bo'lishi, nodonlikdan qochishi, donolar bilan hamsuhbat bo'lishi kerakligini uqtiradi adib. Xoja Ahmad Yassaviy nodonlardan cheksiz nafratlanib, yozadi:

Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lib,
Bag'rim kuyib, jondan tuyub, o'ldim mano.
To'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ar,
Qonlar yutub, g'am zahriga to'ydim mano.

Shoir ulfat bo'lgan, suhbat qurgan to'g'ri yo'lga da'vat etganlar faqat shunchaki oddiy kishilargina emas, balki ular orasidagi noqis rahbar-u amaldorlar, o'zlarini olim sanab, lekin ilmdan yiroq maqtanchoqlar, o'z qabih maqsadi yo'lida hech narsadan qaytmaydiganlar ham bo'lgani aniq. Xoja Ahmad Yassaviy ana shunday nodonlardan "bag'rim kuyub", "jondan to'yib", yashadim deya zorlanadi. Shoir she'rlarining ma'no-mundariyasi keng. Miskin-g'ariblarga, yetim-yesirlarga rahm-shafqat qilish haqida qayg'uradi.

G'arb, faqir yetimlarni Rasul ko'rdi,
O'shal tuni me'roj chiqib diydor ko'rdi.
Qaytib tushib g'arib, yetim izlab yurdi,
G'ariblarni izin izlab tushdim mano.

Shoir g'arib-u faqirlar, yetim-yesirlarga ko'mak berish ahli musulmonlarning muhim burchi ekanligini aytadi.

Ahmad Yassaviy haqiqiy va soxta olimlikni farqlash lozimligini, haqiqiy olim olam mohiyati, borliq asosini to'g'ri va haqqoniy anglashini, agar buning aksi bo'lsa, u olim emas, balki zolimligini ta'kid etadi. Soxta olimlar haqida Ahmad Yassaviy yozadi:

Olimman deb kitob o'qur, ma'no uqmas,
Ko'b oyatning ma'nosini hargiz bilmas,
Takabbur-u manmanlikni dini tutmas,
Olim ermas, johil turur, do'stlarimo¹.

¹ Ahmad Yassaviy. Deboni hikmat. . –T., 1992, 46-bet.

Bu misralar orqali adib o'qish va uqish alohida-alohida hodisa ekanligini, har bir kitobxon o'qiganlarining tub mohiyati, asosiga yeta ola bilishini ham uqtiradi.

Ahmad Yassaviy ilmni, o'qish-uqishni, idrokni insonioyatga Olloh uchun in'om etilgan benazir boylik dya biladi. Adib ilm, olimlik, ziyoli, ma'rifatli kishilarni ulug'lab shunday yozadi:

Qul Xoja Ahmad, olimlarga xizmat qilg'il,
Olimlar so'zin eshitib, amal qilg'il.
Amal qilib, Haq yo'lida joning bergil,
Amalsizlar diydor ko'rmas, do'stlarimo¹.

Ko'pgina ziyolilar singari Ahmad Yassaviy ham o'z zamonasida guvohi bo'layotgan salbiy ishlar – nohaqliklar, zo'ravonliklarni qattiq qoralaydi. Adolatli siyosatga asoslangan jamiyatni istaydi, bu yo'lga g'ov bo'layotganlarni tanqid qiladi. Qolaversa, jamiyatda birodarlar orasidan mehr-shafqat, oqibat ketganligini baralla *“Xalq-u eldin mehr-shafqat ketdi, do'stlar”*, deya yozadi. Adibning bu boradagi ayrim misralarini kuzatamiz:

...Ulug' - kichik yoronlardin odob ketdi,
Qiz-u za'if juvonlardin hayo ketdi.

...

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo'q,
Podsholarda, vazirlarda adolat yo'q,
Darveshlarning duosida ijobat yo'q,
Turluk balo xalq ustiga yog'di, do'stlar.

...

Oxirzamon olimlari zolim bo'ldi,
Xushomadni etguvchilar olim bo'ldi.
Haqni aytgan darvishlarga g'anim bo'ldi,
Ajab shumlig' zamonlar bo'ldi, do'stlar².

Adibning da'vatlarida “hirs-havo va nafs yo'li”dan qaytishga qaratilgan misralar ham ko'p kuzatiladi. U kishilarga “nafsnı tepgin, nafsnı tepgin” deya takror-takror aytadi, *“Hafsi shayton ishlaridin qilg'il hazar”* deya uqtiradi.

¹ Ko'rsatilgan asar: 47-bet.

² Ko'rsatilgan asar: 62-bet.

Adib yana bir qator hikmatlarida g'arib-u faqirlar, yetim-yesirlarga muruvvatli bo'lish, savob amallarni bajarish muhimligini aytadi. Dunyo-yu molpatastlikni qoralaydi. Dunyoparast odamlar mol-mulk orttirish dardiga muhtalo bo'lib, insonni va Ollohni yoddan chiqarishlarini yozadi.

Ahmad Yassaviy hayot yo'li, ijodi, uning hikmatlari haqida soatlab gapirish mumkin. Xulosa qilib aytamizki, Yassaviy ijodi, hayot yo'li yoshlar ta'lim-tarbiyasida muhim sanalaib, o'zbek pedagogikasining uzviy tarkibi sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. "Ahmad Yassaviy tariqati" haqida nimalar bilasiz?
2. Ahmad Yassaviyning fazilat va illatlar haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.
- 3.
4. Ahmad Yassaviyning qaysi hikmatini yod bilasiz?
5. "Hikmat" deganda nimani tushunasiz?

AL-ZAMAHSHARIYNING "NOZIK IBORALARI" HAQIDA

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy (1075-1143) o'z davridanoq "ustod ul-arab val ajam" ("arablar va g'ayri arablar ustoz"), "faxru Xvarazm" ("Xorazm faxri"), Makkada uzoq vaqt yashab, ilmiy asarlar yozgani uchun Jarulloh ("Ollohning qo'shnishi") kabi unvonlarga ega bo'lgan alloma dastlabki bilimni egallash uchun otasiga Xorazm madrasasiga borib o'qishni xohlashini aytadi. Bundan ko'rinadiki, bo'lajak olim yoshligidanoq ilm-fan o'rganishga ishtiyoqmand bo'ladi. Xorazmning Zamahshar qishlog'idan yetishib chiqqan Mahmud o'z bilimi, tafakkur imkoniyati, chuqur idrokiy qarashlari bilan tez muddadat Sharq va G'arbda nom qozonadi. Buyuk olim kelajak avlodlar uchun bitmas-tuganmas ilmiy meros qoldiradi. U arab tili va adabiyoti, diniy va dunyoviy bilimlar (fiqh, hadis, tilshunoslik, lug'atshunoslik, aruz, geografiya va h.k.)ni chuqur o'rganadi, mazkur fanlar bo'yicha 50dan ortiq asar yozadi¹.

¹ R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. Darslik. –T., 2017, 46-bet.

Zamahshariyning “Al-Kashshof” (Qur’oni Karim tafsiriga bag’ishlangan asar) va “Navobig’ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarlari inson kamoloti, ilm-fan ravnaqi, odob-axloq haqidagi qarashlardan iboratligi bilan yuqori ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiyaga oid fikr va mulohazalari, ayniqsa, “Navobig’ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarida ommabop tarzda bayon qilingan. Bu asarda kishilarning ota-onaga hurmat, ilm egallash, vafo, halollik, mehnatsevarlik, insof va diyonat keng tarzda, batafsil, ravon tilda e’tirof etilgan.

Olim to’g’rilikni ulug’lab shunday deydi: “Tog’ri va haq yo’ldan yurgan kishining yurishi arslon yurishidan ko’ra ham mahobatliroqdir¹” Bu bilan muallif to’g’rilik egrilikdan, har qanday jirkanch ishlardan ustun turishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, halollik va pokizalikni, qalb sofligini ulug’laydi. Bu borada “Halol va pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikda bo’lib, birovga xiyonat-u yomonlik qiluvchilar hamisha halokatga giriftor bo’lishi mumkin” ligini aytadi.

“Nozik iboralar” asaridan:

- Agar tilingning ortiqcha so’zlashiga ega bo’la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo’lasan.

- Ko’p so’z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko’rinsa-da, Alloh nazdida ular nomaq’buldir – so’zlovchini ham, eshituvchini ham mulzam qilar.

- Ey bo’tam, tilingni yomon so’zlardan saqla.

-Yoki ilmli bo’l, yoki ilmga tayanib ish tutuvchi bo’l, loaqal ilmni tinglab, eshitadigan bo’l.

- Quyosh nuri berkitilmaydi, haqiqat sha’mi so’nmaydi.

- Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman degan o’ylardan voz kech,... tafakkur va idrok bilan ish tut.

- Birovga yomonlig-u xiyonat qiladigan kishi halokatga giriftordir.

- Insonni boylik, pul-dunyo, amal emas, balki ilm ulug’laydi.

- Ko’pincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og’irroqdir.

¹ Abdul Qosim Mahmud az-Zamahshariy. Nozik iboralar. –T.: “Kamalak” 1992, 32-bet.

- Lovillab yonayotgan alangani suv o'chira olganidek, nodon odamlardan chiqayotgan alangani hakim va oqil odamlar so'ndira oladi.

- Kimniki himmat-u muruvvati qanchalik ko'p bo'lsa, odamlar unga shunga

yarasha sherik bo'larlar.

- Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar¹.

Zamahshariy mazkur asarida odamiylikni birovga yaxshilik qilib, o'girini yengil qilishda deb biladi. Uning fikricha, odamlarning eng hurmatli va azizi qayg'uli, hasratli damlarda bilinadi.

Donishmand bobomiz Zamahshariy ilm va ilm ahlini yuksak baholaydi, ularning mehnatini har qaysi kasbdan ulug' deb biladi. U yozadi: "Yer-u zaminning ko'rkamligi olimlar bilan bo'lsa, osmon-u falakning ziynati yulduzlar bilandir".

Zamahshariy qavm-qarindoshlar o'rtasidagi ahillik mustahkam bo'lishi lozimligini yozadi. Bu, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi uchun muhim sanaladi. Olim yozadi: "Ba'zan odamlar o'z yaqin qavm-qarindoshlariga xayr-u ezgulik ko'rsatmay, yaqinligi, qarindoshligi bo'lmagan kishilarga ehson qiladilar. Tuyaqush o'z tuxumlarini tashlab, boshqalar tuxumini bosib yotgani kabi ba'zi telba odamlar borki, o'z qarindosh-urug'ining yordamga muhtojligini bila turib, unga yordam qilmay, behuda yot-u begonalarga ehson qiladilar".

Xullas, Zamahshariyning ta'lim-tarbiya borasida aytgan pand-nasihatlar pedagogik xarakterga ega bo'lish bilan birga, hech qachon eskirmaydigan, o'lmas, hayot haqiqatlaridan iborat, desak yanglishmaymiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zamahshariy qaysi fanlar bo'yicha kitoblar yozgan?
2. Zamahshariy o'z davrida qaysi nisbalar bilan olqishlashgan.
3. Olim hikmatlaridan namunalar ayting va izohlab bering.

¹ Korsatilgan asar: 48-72-bet.

SA'DIY SHEROZIY – ULUG' MURABBIY

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk vakillaridan biri Shayx Sa'diy Sheroziy 1184-yil Sheroz shahrida tavallud topadi. U boshlang'ich ma'lumotni maktabda olib, so'ng Bag'dod shahridagi Nizomiya madrasasiga o'qishga kiradi. O'qishni tugatib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qiladi, sayohat bilan birga, ilm-u urfon o'raganadi.

Sa'diy Sheroziy keksalik yillarida o'zining “Bo'ston”, “Guliston” asarlarini yozib, ulug' murabbiy ham ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotladi. Mazkur asarlar Sa'diy ijodining yuqori cho'qqisi sanaladi. Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida aytganidek, “...Maoni ahlining nukta pardozi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy” ning pand-nasihat ruhida yozgan “Bo'ston”, “Guliston” asarlari butun Sharq xalqlariga ma'lum va mashhur bo'lgan. Ular Alisher Navoiyning yoshlik onlaridagi sevimli kitoblaridan ham bo'lgan.

Didaktik mazmundagi ushbu asarlar o'z davridanoq O'rta Osiyo va Eron maktablaridagi darsliklardan biri bo'lib xizmat qilgan va davrlar osha maktab, madrasalar uchun o'quv material bo'lib xizmat qilib kelgan. O'quvchi-yoshlar mazkur asarlar bilan savod chiqargan, oq-qorani tanigan.

Har ikkala asarda bola tarbiyasi, ularga ilm, hunar o'rgatish, eng yaxshi xislatlar, fazilatlar bilan oshno qilishga keng o'rin ajratilgan. Shoir bolalarni yaxshi ko'radi, qadrlaydi, shu bois “Bola – meva, umrning lazratidir” deya so'zlaydi.

Sa'diy “Guliston” asarida farzand tarbiyasi haqida “Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach baxtli bo'la olmaydi. Ho'l mevani istagancha buka olish mumkin. Quruq novdani esa faqat olovga tovlab to'g'rilash mumkin”, – deydi.

Farzand tarbiyasida me'yorni saqlash o'ta muhim ekanligi, uni haddan tashqari erkalatishning oqibati yaxshi bo'lmasligi haqida adib “Guliston” asarida shunday yozadi:

Ota-onasi etkalatsa nuqul,
Juda ko'p qiyinlik ko'rgay o'g'il.
Aql o'rgat-u, to'g'rilik, poklik,
Sevib erkalatma, qil idroklik.
Kichiklikda ta'limni majburiy qil,
Uni qo'rqit-u ham shirin so'zlagil.

Ko'rinadiki, donishmand bobomiz Sa'diy Sheroziy kichik yoshdagi farzandlar kamolida kezi kelganda majburiy ta'lim-tarbiya lozimligi haqida ham qat'iy fikrni ilgari suradi.

Farazand tarbiyasi o'z vaqtida va o'z o'rnida to'g'ri tashkillashtirilishi shartligi, agar buning aksi bo'lsa, farzand birovlariga qaram, kelajagi nurli bo'la olmasligini "Bo'ston" pandnoma asarida shunday ta'riflaydi:

Har odamki farzand g'amin yemagay,
Birovlarning ilgida xor aylagay.

Boshqa didaktik asarlarda keltirilgani kabi "Guliston", "Bo'ston" asarlarida kasb-hunar egallash borasida bitilgan fikrlar ham yoshlar uchun muhim sanaladi. Sa'diyning "Guliston" asarida bu xususida quyidagi hikoya keltiriladi: "Bir donishmand o'g'illariga quyidagicha nasihat qildi: – Sevikli farzandlarim, hunar o'rganingiz, dunyoning mulk va davlatiga e'tiqod qo'ymoq durust emas, mansab – shahar darvozasidan tashqariga chiqmaydi. Oltin va kumush osonlik bilan yo'qolib ketishi mumkin. O'g'ri o'g'rilab ketadi yoki egasi oz-oz yeb tamom qiladi. Ammo hunar qaynar buloqdir va doimiy davlatdir. Agar hunarli kishi davlatdan tushsa, g'am yemaydi, chunki hunar uning qalbiga o'rnashgan davlatdir. U qayerga bormasin, hamma yerda hurmat ko'radi..."

So'ng Sa'diy o'quvchilarga pand-nasihat tarzida shunday deydi: *"O'tay yaxshi nom birla desang agar, Sen o'g'lingga o'rgatgil ilm-u hunar"*.

Ota-onalarga murojaat qila turib, "qancha boylik, mablag'ingiz bo'lsa ham, farzandlaringizga bilim, kasb-kor o'rgatishdan tolmang, buni hayotning mazmuni deb biling", deya uqtiradi Sa'diy.

Agar senda Qoruncha ham bo'lsa zar,
O'z o'g'lingni qoldirmag'il behunar.
Suyanma bu davlatgakim, senda bor,
Ketar balki u bo'lmayin beqaror.
Bo'shab qolgay oltin, kumush hamyoni,
Bo'shalmas hunarmandning karmoni.

Har bir inson o'ziga ishonib, o'z kuch-g'ayrati bilan hayot kechirishi, halol luqma topib, iymon-e'tiqod bilan yashashini adib oqlaydi va shunday deydi: *"O'z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi"*.

Vatanga sadoqat, el va xalqqa hurmat ko'rsatish yigit kishining azaliy aqidasi, mo'tabar ishi, o'lmas fazilati ekanligini shoir ko'p bor ta'kidlaydi. Otalar tilidan yoshlarni davlat, xalqqa sodiq, vafodor bo'lishga chorlaydi:

O'g'liga otasi qildi vasiyat:
"Baxtiyor bolam, quy qulog'ingga pand –
O'z eliga vafo qilmagan kishi,
Na sevimli bo'lur va na donishmand"¹.

Sa'diy farzand tarbiyasida aqliy, nafosat va jismoniy tarbiya muhimligini yozadi. Bu bilan adib Farobiy, Ibn Sino kabi ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini oydinlashtiradi, uning tub ildizlarini qidiradi. Farzand tarbiyasida oilada otaning roli yuqori turishini ta'kidlaydi. Sa'diy fikricha, bolada xulq-atvor shakllanib bo'lgach, ya'ni vaqt o'tgach tarbiya aytgandek ta'sir etmaydi. Nazariy bilimlar hayot bilan vobasta olib borilishi kerakligini, shundagina bu bilim ahamiyat kasb eta olishini yozadi. Ilmiga amal qilmagan kishini "bolsiz asalari"ga o'xshatadi adib. Bu borada yozadi:

Harchand o'qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.

Bu bilan Sa'diy o'rgangan nazariy bilimlarimiz hayotda asqatishi, buning aksi bo'lsa, hech ham foyda keltirmasligi, umuman, bilim olish hayot yo'llarimizni yorituvchi nurli quyosh ekanligini ta'kidlaydi. Bu kabi fikrlar nafaqat o'z davri uchun, balki bugun ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas, albatta.

Sa'diy Sheroziy pand-nasihatlarida yana bir dalil ahamiyatli sanaladi. Bu kamdan kam adiblarda kuzatiladi. Adib yetim-yesirlarga alohida hurmat bilan qarash, ularni ardoqlab, qadrlashni zaruriy amallardan deb biladi:

Yetimlar boshiga mudom soya sol,
Arit gard-u changin, tikan kirsa ol.
Yetim tursa oldingda ma'yusdil,
O'z o'glingni hatto o'pib suymagil.

Sa'diy ovqatlanish borasida ham foydali fikrlarni yazadi. Me'yordan ortiq ovqatlanish tan va ruh uchun zararligini aytadi.

Ko'p yema og'zingdan chiqib ketmasin,
Och yurma, zaiflik jondan o'tmasin.

¹ Sa'diy. Guliston. –T.: "G'ulom", 1968, 150-bet.

Ovqatdan tanaga keladi lazzat,
Ammo ortiqchasi keltirar zarar.
Gulshakar zarardir ko'p yesang agar,
Me'yorida yesang, non ham gulshakar.

Sa'diy nutq odobi, so'zlash madaniyati ham odamzodning fazilati,
yaxshi xulqi natijasi deb biladi. U yozadi:

Ey oqil, so'zingning ham bosh-oyog'i bor,
O'zga so'zga so'zing qistirma zinhor.
Aql-u xush egasi tadbirli inson,
So'z boshla suhbatdosh jim bo'lgan zamon.

Adib do'stlikka ulug' tuyg'u, insoniy fazilatlarning bosh belgisi sifatida qaraydi. Shoir bu borada *“Oqil inson hech qachon do'stidan kechmaydi, do'st bilan jon-u tan bo'lsang, g'animlar senga zarar yetkaza olmaydi, ular shox-u ildizi bilan yemiriladilar”*, deya ta'kidlaydi.

Xullas, Sa'diy Sheroziyning pedagogik qarashlarida donishmand xalqimizning hayot haqidagi falsafasi mujassam bo'lib, o'zidan oldin yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning xalqchil, o'lmas fikrlari davom ettirilgan, rivojlantirilgan. Sa'diy shu fikrlar, qarashlar bilan keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas meros qoldirdi.

Sa'diy merosi nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham mashhur sanaladi. Fransuz faylasufi Volter adibning “Guliston” asaridan xabardor bo'lgan, undan o'z ijodida foydalangan bo'lsa, nemis shoiri Gyote shoirga “juda mahsuldor va fayzli, hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir”, deb baho beradi. Uning asarlari, ya'ni “Guliston”, “Bo'ston” Sayfi Saroyi, Ogahiy, 1909-yilda esa Murodxo'ja domla Solixo'ja o'g'li tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Sa'idiy Sheroziy hikmatlaridan¹

Har kishida bo'lsa aql ham hunar,
Dunyoda ikki umr lozim bo'lar.
Avvalida – yig'sa bilim, tajriba,
So'ngisida barchasin ishga solar.

¹ Hikmatlar olingan manba: Donolar bisotidan. Tuzuvchi Sh.Shomuhamedov. –T., 1976.

...
Oqilg'a past kishi ko'rguzsa jafo,
Ko'p alam chekmasin bo'lib dilsiyoy.
Arzon tosh sindirsa zar kosani gar,
Tosh narxi oshmaydi, past tushmas zar.

...
Tushundim, padaring ekan ko'p fozil,
Otang kamolidan senga ne hosil.

...
Yillar o'tib ketdi tepangdan g'ir-g'ir,
Otang mozoriga bordingmi bir dam?
Otang xotiriga nima ezgulik
Qildingki, o'glingdan kutasan sen ham?

...
Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg'aygach, bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.

...
Chumoli yoz bo'yi yig'ar yemak-don,
Toki qishda uyi bo'lsin farovon.

...
Erta kun arpaga zor bo'lmay desang,
Bugun ek, shoyadki, bug'doy non yesang.

...
Mashaqqat chekmagan topmas xazina,
Tun ortidan kelar kunduz hamisha.

...
Kimki befoyda umrin o'tkazdi,
Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.

...
Bemuruvvat, xunuk ariga aytg'il:
"Asal bermasang ham, nishingni sanchma".

...
Odamning ustiga qarab bir kuda,
Ilm-u darajasin bilsa bo'ladi.
Va lekin dilidan bo'lma xotirjam,
Yillar o'tib, bir kun oshkor qiladi.

...
Solmag'il zaiflar diliga alam,
Zo'rqning jabriga yo'liqma sen ham.

...
Yemak lozim yashamoq, so'ylamakka,
Sen o'ylaysan, hayot kerak yemakka.

...
Past kishini mol-dunyo ko'tarmas beshak,
Eshak atlas to'qimi bilan ham eshak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sa'diy Sheroziyning hayoti va ijodi haqida gapiring?
2. "Guliston" va "Bo'ston" asari, uning tuzilishi va mazmuni haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
3. Sa'diyning "*O'z to'ningga solsang agar yuz yamoq, O'zga to'nin so'ragandan yaxshiroq*" misralari mazmunini sharhlashga harakat qiling.

**ALISHER NAVOIY IJODI – TA'LIM-TARBIYA
O'CHOG'I¹**

Ma'lumki, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodining asl mohiyati ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Shoir asarlarining tub mohiyatida inson va uning baxt-saodati turadi. Navoiy fikricha, odamzod dunyoda hamma narsadan yuksak, sharif, aziz va qadrlidir. Navoiy o'z asrlarida inson haq-huquqlari, qadr-qimmatini uchun kurash olib boradi. Buning uchun Ollohning har bir bandasi, avvalo, sharaflil inson nomiga sazovor bo'lishga harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Bu maqsadga erishishda ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Har bir inson farzandli bo'lmog'i, uni tarbiyalab, voyaga yetkazmog'i lozim. Farzand ota-onaning o'rinbosari, kelajak

¹ Mazkur bo'limni yoritishda I.Husanxo'jayevning "Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida" kitobidan foydalanildi (- T.: "O'rta va oliy ta'lim", 1963.)

davomchilari sanaladi. Havoiiy o'zining "Nazm-ul javohir" asarida yozadi:

Har kimgaki tiftl o'lsa erur ko'zi ochiq,
Shug'li bilan xotiri g'am anduzi ochiq.
Bo'lmoq ne ajab bazmi dilfruzi ochiq,
Kim tiftli bor ersa, bor anga ro'zi ochiq.

Ulug' donishmand Navoiyning mazkur fikrlaridan xulosa chiqadiki, inson uchun yosh avlodni o'stirishdan, uni risoladagidek tarbiyalab, kelajak uchun foydali kishi qilib yetishtirishdan ko'ra xayrli va lazzatli ish yo'qdir. Navoiy farzandni "mehri anvar" (yorug' quyosh) deb biladi. Xonadonni yorug' qilgan, qalblarni quvontirgan bolani Navoiy "chu farzand erur jonga payvand erur", deydi.

Islom ta'limida farzandga yaxshi nom qo'yish shartligi aytiladi. Navoiy bolaga yaxshi nom qo'yish bilan birga, ta'lim-tarbiyasiga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligini ko'p bora ta'kidlaydi. Navoiy "Xamsa" asarida *"Ulcha erur tiftlg'a shoyista ish, Bilki, kichiklikda erur parvarish"* deya so'zlaydi. Bu bilan bola tarbiyasida kechikmaslik uqtiriladi.

Alisher Navoiy dostonlarida qahramonlarini yoritir ekan, ularning yoshligidan to kamolga erishgunlaricha bolgan davrlaridagi ta'lim-tarbiyasini batafsil yoritadi. Bu hol Farhod, Qays, Iskandar, Shirin, Layli kabi qahramonlar tavsifida yorqin kuzatiladi. Buyuk pedagog Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e'tibor qaratadi. Farzand tarbiyasida oila, jamiyat ta'siriga "urg'u qaratadi". Kishi jamiyat bilan uzviy holda yashashi lozimligini, inson jamiyatdan tashqarida bo'la olmasligini aytadi.

Alisher Navoiy fikricha, jamiyat, hayot uchun ta'lim-tarbiya ko'rgan shaxslar kerak, tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan avlodni xalqparvar, bilimli, illatlardan xoli, fazilatli shaxs qilib yetishtirishdir. Yalqov, ishyoqmas, injiq bolalarni asta-sekinlik bilan tarbiyali bolalar safiga qo'shish mumkinligini ta'kidlaydi. Agar ko'p urinib, maqsad hosil qilinmasa, bunday bolaga mehnat sarflash hayf ekanligini o'zining "Mahbul-ul qulub" asarida quyidagicha keltiradi: *"Qobilg'a tarbiyat qilmaslik zulmdir va noqobilg'a tarbiyat qilmog' hayf. Ani adami tarbiyat bila zoyi qilma va munga tarbiyatingni zoyi qilma"*.

Navoiy xalqqa musibat keltiruvchi, ularni xor-zor qiluvchi kishilarga tarbiya ta'sir etmasligi, ularga mehnat chekib, vaqt o'tkazish yaramasligini "Xazoyin-ul maoniy" asarida quyidagi misralar bilan tasvirlaydi:

Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang
tarbiyat,

It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar also odami.

Alisher Navoiy "Nazm-ul javohir" asarida insonning asosiy burchlari sifatida o'z farzandiga eng yaxshi tarbiya berish va odob o'rgatishni sanaydi. Bu borada yozadi:

Topting chu ayol¹ yaxshilik yetkurgil,

O'rgat adab-u, yaxshi qiliq o'rgatgil.

Har necha adab bo'lsa, qattig' yetkurgil,

Xayliga adab qilib saboq yetkurgil.

Ko'rinadiki, farzandni ilm-ma'rifatga, kasb-hunarga o'rgatish bilan birga, uning odob, axloqi bilan ham qiziqish, yoshligidan bu ishga chorchash o'ta muhim.

Olamning yaratilishidan maqsad ham inson va uning manfaatlari hisoblanadi. Bu Navoiy ijodida keng va teran izohlanganligi guvohi bo'lamiz. Insoniylikning bosh belgisi, – deb yozadi Navoiy, – aql, ilmdir:

Baridin g'araz garchi inson edi,

Anga dog'i maqsud urfon edi.

Navoiy "*Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdir*" deyishi bilan ham ilm-u urfonni ulug'laganiga amin bo'lamiz.

Olim xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashda maktablarning hissasi katta ekanligini aytadi va maktab ochish, farzandlarni o'qitish ishlariga bosh-qosh bo'ladi. Maktab borasida "Xamsa" asarida ta'kid etadi:

Bo'lur gum ulug'larg'a mazhab yo'li,

Chu yoshlarga bog'lansa maktab yo'li.

Ya'ni bolalar uchun maktab, tarbiya maskani bo'lmasa, kattalar ham bundan qiyinchilik sezadi, yo'lidan adashadi.

¹ Ayol (iyol) so'zi arab tilida "bola", "farzand" ma'nolarini ifodalash uchun ishlatilgan. Eski turkiy tilda ham ayol so'zi farzand ma'nosida uchraydi. Qarang: U.Qo'ziyev O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar. NDA. –Farg'ona, 2018, 15-bet.

Navoiy xalq manfaati, el tashvishi bilan yonib-yashaydigan kishilarni ulug'laydi, ularni asil inson deb biladi va "Xamsa" asarida yozadi:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Xalqning baxt-saodatini o'z baxti deb biladigan kishilarni haqqoniy inson ekanligini uqtiradi shoir. Inson hayoti har narsadan ustunligini ta'kidlab, xalqqa zulm ko'rsatuvchi amaldorlarga qarata shoir yozadi: *"O'ylab qara, zor va mazlum ona bolani qornida saqlab yurganida qancha azob va mashaqqat tortdi, tug'ulgandan so'ng uning uyqusi buzilmasin deb qayg'urib, kechalari o'z uyqusini harom qildi. Falak o'ttiz-qirq yillab aylanguncha mehribonlik bilan tarbiya berdi, u o'ttiz-qirq yildan so'ng hayot yo'liga tushdi, odam soniga kirdi"*.

Odamiylikni har narsadan ustun qo'ygan mutafakkir o'z qahramoni Shirin tilidan *"Menga ne yor-u, ne oshiq havasdur, Agar men odam o'lsam, ushbu basdur"*, deya barilla so'zlaydi. Bu Navoiyning hayotiy shiorlaridan biri bo'lib qoladi.

Navoiy eng ulug' fazilatlardan biri do'stlikni ulug'laydi, shuningdek, soxta do'stlar, g'araz niyatli do'st qiyofasidagi kimsalarni qoralaydi. O'zi ham ulug' fors (tojik) shoiri Abdurahmon Jomiyni o'zining ustози, ayni paytda eng yaqin do'sti deb biladi. Har ikkala zabardast shoir oralaridagi bu do'stlik boshqalarga ibrat bo'la oladigan darajada edi. Mazkur do'stlik rishtalari nafaqat ikki shaxs o'rtasida, balki xalqlar, yurtlar orasidagi do'stlikning eng yorqin ko'rinishi edi, desak adashmaymiz.

"Mahbub-ul qulub" asarida odob haqida shoir shunday deydi:

"Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi, ...yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi: odamlar tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini berkitadi, bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi..."

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz beradi, adab tarkidin do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavoze do'stlik ko'zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi".

Ota-onani hurmatlash, qadrini ulug' bilish farzandlarning birlamchi farzandlik burchlaridan sanalishi Navoiy e'tiboridan chetda qolmagan.

“Xamsa” asarida bitilgan, bugungi kunda ham sevib aytiladigan quyidagi misralar aynan ota-onalarni qadrlashga bag’ishlangan:

Boshni fido ayla ato qoshig’a,
Jismni qil sadqa ano boshig’a.
Tun-kunningga aylagil nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
Sozlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridan qo’yma qadam tashqari.

Alisher Navoiy kishilarni muloyim, yoqimli, nafosatli, madaniyatli, xushmuomala bo’lishga da’vat etadi. Ayni vaqtda o’zlari ham bunga amal qiladilar. “Mahbub-ul qulub” asarida Navoiy „...*Yoqimlilik, xushmuomalalik inson gavdasining mevali bog’idir. Odamgarchilik olamning toshlik javohirlik tog’i, muloyimlikni hodisalar daryosida kishilik kemasining langari desa bo’ladi va insoniylik mezonining toshiga nisbat bersa bo’ladi*“, deya so’z qotadi.

Navoiy tamagirlikni qattiq qoralaydi, bu illatdan xoli kishilarni sharaflı odamlar deb biladi. Bu borada u o’ziga xitob qiladi:

Ey Navoiy, olam ahlida tamasiz yo’q kishi,
Har kishida bu sifat yo’qdur, anga bo’lg’ay
sharaf.

Umuman, Alisher Navoiy asarlari yoshlar tarbiyasi va ta’limiga bag’ishlangan cheksiz bir ummon bo’lib, aytganlarimiz mazkur ummondan kichik bir zarradir. Uning asarlari yoshlarni to’g’ri yo’lga boshlashda, ularga mehnatsevarlik, halollik, to’g’rilik, poklik, ilm-ma’rifat, ma’nafiyat, do’stlik va oliyjanoblikni o’rgatishda benazir maslahatlar bera oladigan eng yaqin dost sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy hayot yo’li haqida gapiring.
2. Alisher Navoiyning qanday asarlarini bilasiz?
3. Navoiy ijodidan misollar ayting.
4. “Mahbub-ul qulub” asari mazmuni va tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

XULOSA

Sharqda, ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar ildizi juda chuqur ekanligi ayni haqiqat. Sharq mutafakkirlarining bu boradagi fikrlari o'z davrida ham, bugungi kunda ham inson hayoti, turmush tarzining ajralmas bir qismi bo'lganligi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi, deya olamiz. Donishmandlarning nodir, benazir pand-nasihatlar bugungi kun o'quvchi-yoshlari, ularning kelajagi, hayot yo'li uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Juda qadimgi ajdodlarimiz fikr-mulohazalari, haqiqatlari jamlangan "Avesto" asari eng qadimgi, noyob bilimlar xazinasi sanalsa, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mahmud Koshg'ariy, Abu Homid G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Firdavsiy, Mahmud az-Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bedil va boshqa allomalarimizning ilmiy-nazariy asarlari, ibratlari, teran ma'noli hikmatli so'zlarida hayotiy haqiqatlar, purma'no nasihatlar, hayot falsafasi jam bo'lganligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida muborak ismlari tilga olingan ajdodlarimiz, buyuk bobokalonlarimizning butun umri insoniy ezgu fazilatlar bilan vobasta bo'lib, kishilik jamiyatini oliyjanob harakatlarga boshladi, o'z davrida ilm-u ma'rifatni rivojlantirdi. Unib kelayotgan yosh avlodni ilmga, kasb-hunarga, vijdon tozaligi, iymon-e'tiqod, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaga undadi. Ularning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida yoshlar kamoloti va ularning ma'naviy yuksalishi uchun benazir fikrlar bayon etilgan. Unda shaxs tarbiyasi, uning jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi uchun amal qilishi lozim vazifalar, komillik shartlari, hayotni mazmunli o'tkazish asoslari va boshqalar haqida chuqur, asosli dalillar keltirilgan.

Bir so'z bilan ayganda, ulug' donishmandlarimizning ta'lim-tarbiya haqidagi e'tiroflari, shuningdek, ularning hayot yo'li yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, Sharq xalqlarining, xususan, o'zbek pedagogikasining uzviy tarkibi sanaladi.

Mundarija

So'zboshi	3
“Avesto”da eng qadimgi ma'rifiy qarashlar	6
Mahmud Koshg'ariy hikmatlaridan.....	9
Imom Buxoriy merosi – ma'rifat chashmasi	12
G'azzoliyning “Mukoshafatul qulub” asari – ruhuyat kamoli.....	15
Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlari	18
Abu Rahyon Beruniy merosi – aql-u hikmat mash'ali	23
Abu Ali ibn Sino – donishmand pedagog.....	26
Abulqosim Firdavsiy ta'lim-tarbiya haqida.....	31
Kaykovusning “Qobusnoma” asarida farzand tarbiyasi.....	34
Yusuf Xos Hojibning ibrat ummonidan bir qatra	38
Ahmad Yassaviy “Hikmatlari”da o'smir kamoloti	42
Al-Zamahshariyning “Nozik iboralari” haqida	46
Sa'diy Sheroziy – ulug' murabbiy	49
Alisher Navoiy ijodi – ta'lim-tarbiya o'chog'i.....	54
Xulosa	59

Muharrir:

G`Murodov

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

A.Qalandarov

Sahifalovchi:

M.Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 25.05.2020. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 3,7. Adadi 100. Buyurtma №72.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45